

...Kishi ariq bo'yida o'tirib, suvning bir maromda oqishini kuzatarkar beixtiyor tin oladi. Suvning tafti bor. Va har neki ofat ham undan. Azob deganlari shundan bo'lqa kerak. Suv balosi ham borki, jimgina harakat qilayotgan ariq boshida irmoq bo'lgani-yu yana qaerlardadir daryo-yu ummonga qo'shilarini o'ylasangiz, yanada olislaysiz, chuqurlashasiz...

Suv o'ziga muqim maskan topadi. Marra shu yerda...

Kamina irimchi emasman. Ko'rayotgan tushlarim xavotirga solmaydi. Biroq, negadir suv bilan chiqishgim keladi. Suv esa buni tushunadimi yo'qmi, bilmadim. Tushimni suv tugul samoga ham aytmaganman. Ular faqatgina o'ngim bilan yashaydi. Tushdan nedir xulosalar yasab, saboq olaman.

Suv menga yoshligimni eslatadi. Negaki, uyimizning yonginasidan soy bo'lardi. Bu soy qishloqni teng ikkiga bo'lib oqardi. Uning fasllarga qarab turlanishiga ko'p guvox bo'lganman. Goh sokin, goho shovqin bilan oqadigan soy havasga loyiq edi. Yozda unda huzur qilib cho'millardik.

...Bir kuni qo'shni bolalar bilan cho'milayotganimizda, soqollar ko'ksiga tushgan Samad bobo ham yaktagu ishtonni bilan o'zini soyda oqayotgan suvgaga tashladi. Suv qalqdi. Bizlar esa unga hayronu lol bo'lib qoldik. Bobo huzur qilib cho'millardik. Qo'llari bilan tez-tez harakatlar qilib, tajribali g'avvosdek boshlarini suvgaga tiqib-tiqib olardi-da, yuzini ko'tarib, og'izlarini ochib suzardi. So'ng biz ham sekin asta kalla tashlab, soyga sho'ng'iy boshladik.

Cho'milib bo'lganimizdan keyin soy buyidagi qumloqda hammompish va boshqa o'yinlarni boshladik. Shu paytda Samad bobo ham yonimizga kelib, biz bilan xuddi bo'yinsadek o'ynay boshladik. Avvaliga ajablandik, keyin esa odatdagidek har kim o'zicha turli xil suratlarni qumga sola boshladik. Bobo soqollarini silaganicha zavqu shavq bilan bilan chaqqon harakatlar qilardi. U bilan yoshimiz orasidagi farq deyarli unut bo'lgandi. Bobo tutning suratini chizardi. Daraxtning qabariq tanasini mahorat bilan ishlab, tomirlarini esa suvgaga tushirib qo'yandi.

Samad bobo haqiqiy rassomlarga xos harakat bilan tutni hosilga endirmoqchi bo'lardi. Uning shohlariga mayda toshlarni meva kabi qadab chiqdi...

"Endi men sizlarni tut bilan mehmon qilaman," deb turgan paytda boboning nevaralari kelib qoldi. Nevaralar boboning ishidan ham hayrat, ham uyatdan qizarib turardi. Ular bobosining ustı boshi ho'l bo'lishiga qaramasdan uni mahkam qo'litiqlab olgandi. Samad bobo esa indamaygina, boshini qo'yи egganicha nevaralariga qo'shilip ketib borardi...

Biz bolalar boboning izidan kuzatardigu va u chizgan tutlarga qaraganimizcha jimgina qarab turardik... Yana qaytib, soyda cho'milib, hammompish o'ynadik.

Ana shunday kunlarning birida Samad bobo yana soyga keldi. U bu gal cho'milmadi. Bobo bizning suvdan chiqishimizni kutib turdi. Ust-boshimizni kiygach, bobo bizlarni ortidan ergashtirganicha, yo'lga tushdi. U bizlarni qirning yonidagi ziyoratgohga boshlab borayotgandi. Ayni ziyoratgoh qishloqning qabristoni bilan qo'shilip ketgandi. Biz qo'rqa pisa qo'yindilar orasidan o'tib, maqbara oldiga keldik. Bolalar do'ppaygan qabrardan qo'rqib turardik. Bobo esa chaqqon bilan harakat qilardi. Uning yurish-turishi-yu ko'zlarida ishonch bor edi. Ko'zlar chaqnab turardi.

Maqbaraning ustı koshinlar bilan qoplangan bo'lib, qubbasida misdan ishlangan hilol bilan beshpanja ramzları turardi. Atrofidagi o'choqlar kullardan tozalanmagan va uning yonida qozonlar ham to'ntarilganicha turardi. Tevarakdagi daraxtlarning shoxlariga esa turli tusdag'i lattalar o'rabbashlangan edi.

Ziyoratchilarining soni kam. Samad bobo maqbara ichiga bizni boshlab kiradi. U yer unchalik katta bo'lmasa-da, o'n-o'n besh kishi bemalol sig'ardi. Bobo taxtapanjaralı dahma og'zida cho'kkalab nelarnidir pichirlab o'qidi. So'ng qo'lini duoga ochdi, biz ham beixtiyor unga esh bo'lib, yuzimizga fotiha tortdik...

Bu ziyoratgoh ilgaridan mashhur bo'lgan ekan. Boz ustiga arkoni davlat ham bu joyga kelib, tavob qilganligi el orasida gap bo'lardi. Shu sabab bu yer yo'lo'tkinchilar uchun ham qadrli edi. Negaki, ziyoratgoh shundoqqina katta yo'lning yoqasidan joy olgandi. Bu yerga dafn etilgan zot ham islom olamining mashhurlaridan biri bo'lgan ekan. Keyinchalik bu joylar ozodu obod maskanga aylandi. Elu ulus mudom ziyoratgohga kelib turardi. Sababki, ko'ngillari taskinu tasallli topish, umidu ilinjlarining ro'yobi uchun. Ayni ishonchu umid boboning qalbida tursa-da, bizlar uchun ham dalda bo'ldi. Bobo ziyoratgohning ta'rif va tarixi haqida ko'p so'zlab bergandi. Aytishlaricha, bu joy toza ko'ngilli kishilarining ezgu niyatlarini tinglanadigan va amalga oshadigan joy ekan. Bu yerda dafn etilgan zot qishloqning qut barakasiga kafil ekan. Shu sabab, bu elda o'lat vabo bo'lmaydi, qishloqdan xayru baraka ko'tarilmas ekan. Maqbara, ichida bir odam o'tgulik joy ham bor ediki, agarda kishining gunohi bo'lqa, ana shu yo'lakdan o'tar chog'i qisilib qolar emish...

Biz bolalar katta bo'la boshlaganimiz sari, ko'p narsalar va shu bilan birga atrofimizdag'i kishilar ham o'zgarib borayotganinin kuzatib turardik. Hattoki, o'zimiz ham o'zgarib, turlanib borardik...

Bu orada Samad bobo ham qazo qildi. Uni ham mana shu ziyoratgoh yonidagi qabristonga qo'yishdi.

Suv menga yoshligimni eslatadi. Va buning ortidan o'z-o'zidan Samad boboning cho'milgani-yu, u bilan maqbaraga borganlarimiz ko'z oldimga kela boshlaydi.

Suvga qo'shilip, umrim ham oqib ketayotganini sezib qolaman. Biroq, ne bo'lganda ham ko'nglim taskin topadi. Bu vaqt orasida ko'p davralarda bo'ldim. Ko'pni ko'rdim. Ne-ne savdo-yu vokealar boshimdan o'tdi. Yaxshi bilan yomonni farklay boshladim. Birovga atay yomonlik tilamadim va qilmadim ham. Otamning pandu nasihatlariga rioya etdim. Yaratgan meni ko'p siyladi...

* * *

Muharam o'quvchi! So'zim shu yerga yetganida beixtiyor o'zim haqimda gapirish va kimligimni aytishim kerakligini anglab qoldim. Buni qarang, o'z bolaligim, soyu ziyoratgoh haqida so'zlabmanu o'zimnitanishtirishni unutibman...

IsmimPo'lat. Sharifim esa Buzrukov. Men qishlog'imiz - Tutilisoydag'i maktabni tamomlab, markazdagi ilm dargohlarining birida tahsil oldim. Taqdir taqozosizi bilan shu yerlarda qolib ketdim. Dastlab, shapaloqday gazetaga ishga kirdim. Oila tutdim. Keyinroq esa qalinroq bir jurnalga taklif etishdi. Yo'q deya olmadim. Va mana shu dargohda ro'zg'orimni tebratib yuribman.

Aytishim kerakki, bu dargohda hamma sipo, o'zini bilag'onu donishmand tutadigan, birovga yon bermaydigan ajabtovor kimsalar ishlardi. Go'yoki, ular uchun hayot mana shu joy edi. Hammasi o'zini ko'z-ko'z qilish uchun bu yerda o'ralashib yurgandek tuyulardi. Boz ustiga kattaga hurmatu kichikka izzat degan tushunchalar esa ko'tarilib, tushuniksiz va g'urbatli holat yuzaga kelib qolgandi.

"Turdi Tashakkur bilan Sadaf deganlari shodiyonaga atab qasida bitishibdi. Bu yerda bir gap bor. Turdi Tashakkuring qo'yilmaganini qarang!?. O'zining oilasining o'ylamagani mayli-ku lekin Sadafning gulday ro'zg'ori buzilmasinda!..."

"Pomir Laqay deganlari qo'shnochmi tabib bo'libdi. Laparchi qizlarning ovozini shirali qilaman, deb pullarini olibdi. Bergan

o'tlarining ta'siri bo'limgan chog'i, qizlar bechoraning boshiga dutoru doiralarli bilan uribdi. Qonga belangan tabib bazur qochib qutilibdi. Rahmat Jumaning ham ovozingizni tuzataman, deb pulini olibdi-yu lekin natijasi yo'q emish. Rahmat Juma esa "bu enag'ar Pomir Laqay aldamchi ekan-ku!" deya tabibini izlab yurganmish."

Har bir idorada bo'lgani kabi bu yerda ham mana shunday gapu so'zlar og'izdan og'izga o'tib, qulooqqa chalnib turardi.

Dargohning rahbari Xayriddin Nosir charm sumkachasini ko'tarib, ko'ziga ohangjama oynakni kundirganicha, boshini ko'kka qadab shaxdam qadamlar bilan yuradi. U xardamxayol odam. Hushi kelsa siz bilan hol so'rashadi, bo'lmasa berilgan salom aliksiz qolib ketaveradi.

Ko'pchilik uning kelayotganini ko'rsa, yo'lini burib ketardi. Ba'zilar esa yelkalarini qisganicha, ikki qo'lini juftlab xuddi bedana tutmoqchidek rabbarning yoniga oshiqardi. Shunda Xayridin Nosir noiloj qo'llarini uzatadi.

Aytish joizki, rabbarning gapiga idoradagilar unchalik ham tushunmaydi. Negaki, u tez va ustiga ustak boshiga shahvat urgan serakdek kalta-kalta so'zlardi. Rabbarning o'zi ham buni tan olardi.

U ham barcha kabi maqtovni xush ko'rardi. Buni esa butun jamaa bilardi. Ayniqsa, o'rinbosarlari Halim va Yormatlar biri qo'yib, biri olib Xayriddin Nosirni varrakdek ko'klarga chiqarib, maqtashardiki, so'z oxirida rabbarning o'zi "rahmat akalar, sizlar meni to'g'ri tushunasizlar," deb qo'yadi. So'ng chapdastlik bilan suhbat o'zaninini boshqa tomonga burmoq uchun Halimga yuzlanib: -Uylar tinchmi?- deb so'raydi.

-Tinch, - deya Halim yerga tikiladi. O'g'illarnikida turibman, kelin issiqsovug'imdan xabardor. Yaxshiyamki, kelinni o'zimizdan qilgan ekanman. Bechora og'rinxaydi.

-Yanga bilan yarashingda endi, aka? deydi rabb.

-Endi bo'lmaydi, g'isht qolipdan ko'chgan, - deya Halim xo'rsinadi.

-Qarigan chog'ingizda bu azob ham bor ekan-da? so'roqlaydi rabb.

-Ey, uka, qo'ying bu gaplarni. Yuragim eziladi. Birovga qo'shila olmayman. Ishxonaga kelsam, sal-pal ovunaman, - deydi Halim. Rabb biroz jim turdi. Bu bilan u "suhbat tamom, endi jo'nanglar," demoqchi bo'ldi. Yuzaga kelgan vaziyatdan o'ng'aysiz bo'lib, Yormat o'midan ohista turdi-da, eshik tomon yurdi. Eshikning qabzasidan tutib:

-Xayriddin aka, ishlar hammasi reja asosida tashkil etilgan. Agar biror topshiriq bo'lsa, aytarsiz shartta bajaramiz. Men o'zimdaman, - dedi-yu xonadan chiqishga chog'landi.

-Bo'pti, boravering, - deya rabb kulib kuzatdi.

Bu bilan u Yormatning gapidan ham, o'zidan ham istehzo qilardi. Halim esa yosh boladek boshini qo'yи ekkanicha jim o'tirardi.

-Yormat aka qiziq odam-a? deya rabb o'smoqchilaydi.

-Yaxshi odam u, - deya Halim boshini ko'taradi. Sizni juda hurmat qiladi. Sodiq qullaringizdan. Ba'zi bir nuqsonlari ham borki, lekin kechirsa bo'ladi. Kimda ayb yo'q deysiz. Tinib-tinchimas odam. Ko'p narsalarni biladi. Lekin aytmaydi, qo'rqqoq.

-Qo'rqqoq odam sotqin bo'ladi, - deydi rabb dabdurustdan.

-Lekin Yormat sotqinlik qilmaydi. Sinab ko'rganman, - deydi Halim.

-Xodimlarning undan norozi ekanligini bilmaysiz, shekilli, - deya rabb ajablanib qaraydi. U nima topshiriq berayotganini o'zi bilmash ekan. Yig'inda men nimani aytgan bo'lsam, o'shani oqizmay-tomizmay yozib olar ekanda, bir boshdan o'qib berarmish. Hattoki, men sizlarni bayram bilan tabriklashim kerak ekan, deya boshini qog'ozdan ko'tarib, xodimlariga "Xayriddin aka ayttdiki, men sizlarni ushbu bayram bilan tabriklayman," debdi. Hamma o'tirgan xodimlar buning ustidan miriqib kulibgan. Aka,bu sharmandalik-ku!.. Ayting unga uyat bo'ladi. Sal bo'lsa-da ortu oldiga qarab ish tutsin. Bu holda siz bizni ham izza qilishi hech gap emas.

-Parvo qilmang, - deydi Halim bepisandgina. Buni Buzrukov atay to'qiganini ham bilaman.

- Yo'q,boshqalardan eshitdim. Ishonchli manba. Buzrukov uni mensimasligini bilaman. Umuman olganda, Yormat akaning xato qilayotganini achchiq bo'lsayam tan olishimiz kerak-ku axir. Bu kabi nuqsonlarimiz dargohdan tashqariga chiqsa yomon bo'larini ham o'ylashimiz kerak, - deydi rabb.

-Gapingiz to'g'ri, Xayriddin aka, lekin Yormatdan boshqa odam bu yerni eplay olmaydi. U boyoqish siz bergan topshiriqni qanday bajarar ekanman, deb boshqotiradi. Ishni o'ylaydi. Qo'l uchida apil-tapil ishslashga o'rganmagan. Sizga hurmati baland,- deydi Halim.

-Yormat akaning Buzrukov bilan munosobati yaxshimi ishqilib, yoki? so'roqlaydi rabb.

- Xabarim yo'q. Buzrukov Yormatni mensimaydi. Ishgayam gohida, ko'ngli tusasa keladi. U mahmadana, ko'p oliftalik qilmoqda. Hamma bir tomon, Buzrukov bir tomon. Kimiga ishonar ekan-a, bu Buzrukov deganlari? deya Halim savolomuz rabbarga razm soladi.

-Buzrukov yomon bolaga o'xshamaydi-ku! deya rabb ajablanib xodimiga nazar soladi.

-Odamning olasi ichida. Siz u oliftani bilmash ekansiz. Bo'limdagilar uning dastidan dod deyishadi U bola uncha-muncha odamni mensimaydi. Ustidan kuladi, - deya Halim avj qiladi.

-U kimga oliftalik qildi? Kimning ustidan kulibdi? Gaplashsangiz so'zida ma'ni bor-ku! Balki unday emasdир, balki siz chalg'iyotgandirsiz? deya rabb hadiksiraydi.

-Qaniydi, shunday bo'lsa. Siz uni bilmaysiz. Ehtiyoj bo'ling, ertaga gap-so'z ko'paymasin, - deydi Halim so'lg'ingina.

-Har narsani ishga aralashtirmaslik kerak. Lekin bu bolaning bo'limida ungacha turli qalang'i qasang'ilalar tomir yoyganligini boshqa bilmasa ham siz juda yaxshi tushunasiz. Bola yangi. Muhitni tozalab, ishning olg'a ketishi uchun Buzrukova yordam berish zarur. Odamning oyog'ini chalishdan ko'ra, boshini silagan yaxshi emasmi, xoji aka, - deya rabb razm soladi.

Halim jimgina boshini qo'yи solib o'tirardi.Rabbarning pisandalarini boshida pishitib olardi. "Menga birovni sotayaptimi erta bir kuni meni ham arzon garovga sotishi tayin ekan," degan xayol rabbarda kechayotganinini u allaqachon tushunib ulgurgan edi. Rabb esa uning xayollarini uqib turgandek, mag'rur qiyofada xodimini zimdan kuzatardi. Itining fe'li egasiga ma'lum, deganidek rabb Halim, Yormatu Buzrukvlarning kimligini yaxshi bilardi. Shu bois ularning barchasiga o'ziga yarasha muomila qilardi. Iloji boricha toshu tarozini to'g'ri ushslashga intiladi. Ba'zida esa unga Halim ham daxl qillardiki, buni u bilib bilmaslikka olgan kishi bo'lardi.

Halim Buzrukov haqida gap ochishning bu gal mavridi emasligini sezsa-da, biroq:

-Xayriddinjon aka. Buzrukova yordam beramiz. Yosh kadr. Xatolarini kechiramiz.Sekin-asta tarbiyalab olamiz. Rabbarningiz ostida ishlarimiz oldinga ketsin. Boshimizga doim omon bo'ling. Xudoning o'zi sizni yomon ko'zlardan asrasin, - deya yuziga fotiha tortdi.

Shundan so'ng Halim o'midan turdi-da, rahbar bilan xayrashib, xonadan chiqdi.

Xayriddin Nosir uning sidqidil emasligini, aytgan gaplari shunchaki ko'ngil hushi uchun so'zlanganligini sezsa-da, na iloj indamay qo'ya qoladi...

Xotini Halimni uydan quvib solgan. Negaki, u erini mundayroq tamaddixonada satang shoira Dilrabo Bardosh bilan shakargo'ftorlik qilib o'tirganida qo'lga tushirib, rosa to'polon qiladi. Shoira mushuk timdalangandek yuzini tilib tashlaydi. Erining "oramizda hech gap yo'q, azizam, faqat do'stlik bor, xolos. Shoira qizimizni to'g'ri tushunishingizni so'rayman," deganlariga ishonmaydi.

Haqiqatdan ham, Halim talantli shoira - Dildora Bardoshning boshini silagani rost. Janjal sabab, idorada maxsus yig'in bo'ldi. Xotini xonani boshiga ko'tarib baqirdi, janjal qildi. "Er bermok, jon bermok," deya qo'lidagi katta sumkasini erining jazmaniga qaratib otdi. So'ng eriga yuzlanib, "xayf sizga bu yurish, bola-chaqangizni boqib uyda o'tirsamu siz bu yokda yallo qilib qalang'i qasang'i xotinlar bilan iliqliшиб yursangiz. Uyat. Sharmanda bo'ldim. Bu kuningizdan o'lganining yaxshi edi. Bundan ko'ra tobutingiz ustida yig'laganim ming marta avlo edi. Sadqai odam keting!" deya rosa koyidi. Bechora xotin erining dastidan ancha ko'zyoshini to'kdi

Shu sabab bo'ldi-yu xotini Halimni uyiga kiritmaydi. Ishdan oldirmoqchi bo'ladi. Biroq oraga ulamo Xayriddin Nosir tushadi: -Opa, ey, ey, yanga, kennoyi Halim akani kechiring. Boshi aylangandir, bu ishga qaytib qo'l urmaydi.

-Hali, yana qo'l urmoqchi bo'lib yuribdimi, bu go'rso'xta! deya boshqatdan jazavaga tushdi.

Opa, yanga, kennoyi erini baribir kechirmaydi. Qaytaga, "...shu odam bilan qanday ishlab yuribsilar, buyam odammi o'zi? Xayf bunga odamiylik!" deydi-yu ulamoni pasha haydagandek uyidan chiqarib yuboradi.

Er-xotin shu buyi birga yashamaydi. Boyoqish Halim bularni uylab oxiriga yetolmaydi. Boshi qotadi. Kutilmaganda Yormat uning xonasiga bosh suqdi.

-Keling, Yormatboy, - deydi u.

-Salomalaykum, Halim aka, - deya yugurbanicha kelib, uning qo'lini tutadi. uydagilar tinchmi, nevaralar, o'g'lingiz, kelinu kuyovlar yaxshi yuribdimi? Kennoyi

Yormat so'zining oxirida duduqlanib, yuzlari qizarib ketadi. Biroq Halim sir boy bermasdan:

-Ha, tuzuk. Hammasi joyida, - deydi istar-istamas.

-Negadir kayfiyattingiz tushkun, yuzingiz so'lgin ko'rindi. Sizdek kishini xafa kilishga kim jur'at etdi? deya Yormat xo'rozlanadi.

-Bilmadim, o'zim xam tushunmay koldim. Nima qilarimni bilmay halakman, uka, halovatim yo'qolgan, - deya u noliv boshladni.

-Hamma narsaniyam yurakka yakin olaver mangda aka, Ehtiyyot chorasini ko'ring. Siz bizga xali juda ko'p kerak bo'lasiz, asrang o'zingizni, - deya Yormat hamdardlik qiladi.

-Yormat Turbatdan opkelgan qimizingizni qoldimi? deya so'roqlaydi u.

-Bor, aka, xozir opkelaymi yoki tushlikda bizga ichamizmi? deydi sherigi shoshib.

-Kechga tashkil qilaylik, uka, yuragim to'lib ketyapti.

-Xo'p bo'ladi, siz nima desangiz shu. Kimlar bo'linsin, aytangiz, ularniyam xabardor qilib qo'yardim. Bahri dilingiz ochilib bir yayrang, - deya Yormat yaldoqilanadi.

Halim kunbuyi holsiz, tushkun bir alfozda yurdi. U o'zini ovutish uchun nimalar qilmadi. Bir xodimini chaqirib olib rosa maqtadi. Yana boshqa birini chorlab, koyidi. Qimmatli maslahatlarini berdi. Hattoki, suluvoq xodimasi satang shoira Dilrabo Bardoshni xam huzuriga buyurtirib, ishdan gaplashgandek bo'ldi-yu, aslida ko'p narsalarni so'radi:

-Ijod yaxshimi?

-Aslida, orada muxabbat bo'lganmi yoki sotib olingenmi?

-Siz bahongizni bilmaysiz, afsuski, biz xam qadringizga yetolmayapmiz!

-Ijodni gullatavering. Sizga sharoit yaratib beramiz. Kuch borida ishlang!

-Sizdag'i matonatu latofatni ko'rsam huzurlanaman. Shuning uchun singiljon, iltimos, meni o'zingizdan bebahra qilmang! Kechga vaqtgizni ajratsangiz. Harna, diydorlashib o'tirar edik

Xodima singiljon ko'zlarini suzganicha tannoziyanib o'tirar, gohida boshini silkiganicha sochlarini to'g'rilab qo'yardi. Xodima ikki marta er qilgan, gavdali, xushro'ygina, biroq manjalaqitabiat boz ustiga beva edi. U xonada ishva bilan o'tirardi. Ular ancha vaqtgacha suhabat qurishdi. Ketar chog'in sezdi shekilli, xodima nozu qarashma qildi-da uzrini aytib, xirom bilan xonadan chiqib ketdi. Xona egasi uni ortidan ko'zi bilan kuzatib qoldi.

U boshini silkib, tanglayini taqillatdi. Ayni gurungdan uning ko'ngli joyiga tushmadi. Yuragi battar siqildi. Shu paytda kechki bo'lajak ziyofat ko'z o'ngiga keldi. Tamshanib turib, yuragi to'liqayotganini sezdi. Xayollarini nedir siru sinoat qamrab oldiki, ko'zlar qo'vnab, miyig'ida kului. Sabri chidamay daftarchasidan satang shoira Dilrabo Bardoshning telefon raqamini izlab topdi. Sim qoqdi. Shoiraning o'zi go'shakni kutardi.

-Allo, labbay, - dedi shoira shang'i ovoz bilan.

-Qizim, yaxshimiz? deya so'roqlaydi Halim.

-Ey, ustozi avval Halim aka qaylarda yuribsiz. Salomalaykum. Suvga tushgan toshdek yo'q bo'lib ketdingiz-ku! deya nozlanadi shoira.

- Bag'ringiz xam suvgan tushgan toshdek qattiq ekan, - taltayadi u.

-Ko'nglim yumshoqligini bilasiz-ku. Tunu kun sizni o'ylab yuraman. Nima qilay? deydi shoira.

-Men xam ichikdim. Kechga kelishganimizdek idoraga kelsangiz. Sharafingizga ziyofat uyuştirsam. Yangi namunalardan o'kib berardingiz.

-Mayli, boraman. To'xtang, u yerda kimlar bo'ladi? Yana tag'in o'tgan safargidek - deya satang o'smoqchilaydi.

-Hammasi o'zimizniki. Xavotir olmang, barcha xavfsizlik choralar ko'rilgan. Kelishingizni intizorlik bilan kutaman, - deya go'shakni joyiga qo'ydi.

U sim qoqganidan o'zida yo'q xursand edi. Va uning kelishiga mutloq ishonardi ham. Halim qizi tengi bu satang shoirani yaxshi ko'rib qolganiga hozirgacha ishonmasdi. Ishq yoshu joy tanlamas deganlari rost ekan.

Idorada kechki payt. Hamma ishdan uyga shoshgan. Yormat yurtidan opkelgan qimizni Halimning stoli ustiga keltirib qo'ydi. Ikkalasi bir piyoladan totib ko'rishi. "Boshqa nimalar bor?" deb so'roqlaydi Halim. Yormat esa yelkasini qisganicha "xech narsa," deydi.

Shundan keyin Xalim cho'ntagidan bir dasta pul chiqaradi - da;

3 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

-Yormatboy, nozik mehmonlar keladi. Mana shu pullarni olingda, turli ichimlik va gazaklarning zo'ridan keltiring. Uyaltirib qo'y mang, tag'in uka, - deb tayinladi.

-Bo'pti, aytganingizday qip kelaman. Xayriddin Nosirovich ham keladimi? Yana boshqa kimlar kutilmoqda. Agar sir bo'lmasa, albatta,-deya o'smoqchilaydi.

- Kelganda bilib olasiz. Hammasi nozik odamlar. Ularning ko'nglini olish kerak. Biz sizga ishonsak, bu yog'i sal qopti-ku rasvo qilishningizga, uka, - deya bunisi gina qiladi.

-Xalim aka, bir qoshiq qonim, sodiq qulingizman. Hozir hammasini hozirlayman, - dedi-yu xonadan otilib chiqib ketdi.

Ancha vakt o'tganidan so'ng Yormat qo'llaridagi yukni bazo'r ko'targanicha, inqillab-sinqillab xonaga kirib keldi. Qog'ozu yelim xaltalardagi nozu ne'matlarni stolga qo'ysi. Halim bundan hayron bo'lib qoldi. Yormat esa "endi kechirgan bo'lsangiz kerak," degandek qarab qo'ysi.

Yormat ne'matlari yuvib artib, dasturxonga tera boshladi. Keyin o'rtaga qimiz, vino, konyak va aroq qo'yildi. Xodimlarning barchasiga uyiga ketgan. Faqatgina xos odamlar bu yerga taklif etilgan. Ularning orasida men ham borman. Yormat qo'llarini bir-biriga ishqalab, dsturxonadan bir dona uzumni og'ziga solib, tamshanib turgan chog'ida xonaga anovi satang shoira Dilrabo Bardosh kirib keldi. U shu zaylda borib, Halimning bag'rige o'zini tashladi. Uning rapidadek yuzlaridan cho'lpillatib o'pti. Halim ham javob bo'salarni qaytardi. Hammamiz stol atrofiga o'tirdik. Hol-ahvol so'rashildi. Yormat bu paytda gavdasiga yarashmagan chaqqonlik bilan shoira bilan Halimga bir piyoladan qimiz uzatdi.

Halim ajablandi. Shoira "nima bu?" deb hayron so'radi. Yormat bechora "Turbatning qimizi, uydagilar berib yuborishgan ekan," deya iymanibgina gap boshlaganida, shoira asabiy xolda, "men qimiz ichmayman, boshqasidan qo'ying," dedi. Shundan so'ng soqiy qadahlarga konyakdan suzdi-da, tavoz'e bilan shoiraga uzatdi.

Davrada ikki-uch sidra qadahlar urishtirildi. Endi gurung qiziy boshlagan bir mahali xonaga Xayriddin Nosir buynnini yelkasiga tashlaganicha shaxdam kirib keladi. Hamma bilan qo'l berib ko'rishdi. Navbat Dilrabo Bardoshga yetganida "ey, shoirai zamon ham shu yerda ekanlar-ku! qanday yaxshi, ajoyib davra bo'libdi," deya satangning qo'liga qalin labini bosdi.

Rahbar davraning to'riga o'tirdi. Soqiy unga ham bosib-bosib qadah qo'ysi. Rahbar salgina bo'lsa-da qizib oldi. Nafsi orom oldi chog'i, Dilrabo Bardoshga qarab, "ijod qalay, she'r yozyapsizmi?" deya so'roqlaydi. Shoira ham istar-istamas javob beradi. Bu asnoda Halim shoirasini rahbaridan rashk qilab o'tirardi. Gurung o'zanini atay boshqa tomonlarga burishga urinadi:

-Havo ham isib ketdi, dehqon bilan chorvador endi nima qiladi?

-Bu yil qimmatchilik bo'larmikan yoki farog'atchilik

-Hamma tomon qalqib turibdi. Oxiri baxayr bo'lsin

Biroq davradagilardan hech biri uning so'zlariga rag'bat bildirmasdi. Hamma o'zi bilan o'zi ovora edi. Aljirayotgan davra birovni eshitishga qodir emasdi ham. Rahbar Dilrabo Bardoshning ko'nglini sel qilib eritayotgandi. Oxiri, ikkalasi biri olib, biri qo'yib she'r o'qidi. Qarsaklar qurshovida mushoira ancha davom etdi. Halimning ko'ngli bo'shab, xo'ngradi. Yormat ham unga qo'shilib uvvos tortdi. Alyor aytayotganlar esa ularni yupatishga tushdi. Dilrabo Bardosh Halimning boshini silab "yig'lamang, akajon, sadqai ko'zyoshingiz ketsin. Dunyo sizning dardingizga arzimaydi. Sizni hech kim tushunmasayam, mana men anglayman. Bu dunyoda sizni his qiluvchi yagona inson bo'lsa, uyam kaminai kamtarin qulinqizdurman!" dedi. Bundan keyin Halim battar uvvos tortdi.

Shu alfozda nima bo'lganini hech kim bilmaydi. Halim o'yg'onib qarasa, ishxonada yotibdi. Dilrabo Bardosh esa divanda o'tirganicha televizor tomosha qilardi. U uyalibroq o'rnidan qo'zg'oldi. Kerishdi. Shoira unga bir qaradi-yu, kulib qo'ya qoldi.

Nima bo'lgandyam, Xayriddin Nosir mastlikda bergan va'dasining ustidan chiqdi. Halim safar jabdug'ini hozirlashga tushdi. Endi u olis va issiq o'lkada haj amalini bajarib qaytishi shart. Keyin vaziyat o'zgarib, uning ishidayam va keyin esa uyidayam tinchlik bo'lар, degan niyat bor edi bunda. Yormat unga bozordan yuzdan ziyod pichoq keltirdi. "U tomonlarda bu narsa qimmat matoh sanalarkan, harna, harajatlarni qoplaydi. Bu bizdan sizga sovg'a." Halim indamaygina pichoqlarni jomadonga soladi.

Ikki kundan keyin Halim uchoqda safarga jo'nab ketdi. Musofirxonaga joylashdi. Xona shinamgina. Yotib uxladi. Kerakli tavsiyalarni olgach, yana o'rniga kelib cho'zildi. Yo'lda charchaganligi sezildi, kechga tomon musofirxonaning hovlisiga chiqdi. Shaharni tomosho qilgisi keldi. Atrofdan kelayotgan barcha gap so'zlar unga tanish. "Kep qoling, obqoling, hamma arzon mollar shu yerda, pulingiz o'zingiz bilan ketadi." Bozor aylanib chiqdi. Hammasi tanish. Oldida turli attorlik mollar.

U ham zippilab xonasiga chiqdi-da, Yormat berib yuborgan pichoqlarni pastga optushdi. Xaridor yo'q hisobi. Kechga dovur o'tirdi hamki, hech kim pichoqni so'ramadi. Kun og'ar payti bozorchaga boshiga rido o'ragan, surriburn, yuzi silliq, muylabli buychan kishi oraladi. Halim yugurib kelib, pichoqlarini uning surriburni osha ko'ziga tutdi-yu, "ukajon, shuni sotib oling, asl mol. Pulingiz xam o'zingiz bilan ketadi," dedi. Ajabki, ajnabiyy ham unga o'zbek tilida so'zladi. Halim unga lol bo'lди. Ikkovi so'rashdi. Ma'lum bo'lischicha, ajnabiyning bobolari bir zamonlar bu yarlarga Buxorodan ko'chib kelishgan ekan. Alalxusus, ajnabiyy savdolashib o'tirmasdan pichoqlarning hammasini egasi aytgan pulga oldi. U xayrlasha turib, uyning adresini berib, "mehmonim bo'ling," dedi. Halim amal taql qilib haj tadbirlerida qatnashdi. Bajarayotgan ishidan o'zi xam uyalib ketdi. Hali u o'zining ko'p narsalarga tayyor emasligini ich-ichidan sezdi.

Ketar chog'ida mahalliy yurt og'alarining odatiga ko'ra, mehmonlarga atalgan sovg'alar ulashilar ekan. Bunda shart shu ediki, mehmonlar rasamadi bilan borib, belgilangan joydan tasbex, joynamoz va kitobni olishlari kerak edi. Halim ikki dafa bir sidradan sovg'alarni oldi. Oxirida tayinki, bir kishiga aynan mana shu tuhfa yetmay qolsa bo'ladi?! Mezbonlarning boshi qotgan.

Ruyxatni qaraydi. Hammasi joyida. Ammo bir sovg'a izsiz yo'qolgan. Ular uyalganlaridan ham yana shu taxlitda so'nggi kishiga sovg'a berishadi.

Safari qariy boshlaganida Halim ajnabiyning uyiga bordi. U yerda mexmon bo'lди. Mezbonni maqtadi. Yashashidan, uydagi sharoitidan noligan bo'lди. Uy egasi unga bir talay sovna salomlar bilan mexmonini musofirxonagacha kuzatib keldi. Hamma ketishga hozirlilik ko'rmoqda. U ham xonasiga kirdi-da, anjomlarini yig'ishtira boshladi. Ajnabiyy esa unga yordam berardi. Ne tongki, buxorolik ajnabiyy sheringining sovg'alarining orasida ikkita bir xili borligini ko'rib qolib, ajablandi. Noqulay vaziyatga tushdi. Ishonishni ham ishonmaslikni ham bilmasdi. Mehmonga sirli qaradi. U esa parvoyi falak buyumlarni joylash bilan band edi. Mezbon qo'llarini yuvib, sochiqqa artdi-da, mehmonning xonasidan boshini sermaganicha chiqib ketdi.

Halim to'lib toshib uyiga qaytdi. Yormatga sovg'aning bir justini berdi. Go'yoki bu bilan qarzini uzgan kishi bo'lди. Voqeadan bexabar Yormat unga tashakkur aytadi. Halim butun ishxonaga sovg'a ulashardi. Shundan menga xam bir ulush tegdi

Kamina rahbarimiz Yormatning eshigini qattiq yopib, xayr-ma'zurniyam nasya qilib tashqariga chiqdim. Uning xonasida bo'lib o'tgan gaplardan dilim xufton bo'ldi...

Sekin asta xonamga kirdim. Ish stolimga o'tirib, "nega endi Xayriddin Nosir deganlariga mening arizam zarur bo'lib qoldi, ekan. Yoki ishimni to'g'ri bajara olmayapmanmi? Yoxud boshqa siri bormikan?" deb o'ylab qoldim.

Biroz vaqt o'tib, xodimlarimiz kela boshladi. Salom-alik, hol-ahvol so'rashish boshlandi. So'ng hamma o'z ishi bilan ovora bo'lib ketadi.

Tushga yaqin telefon jiringladi. Go'shakni sekingina ko'tardim.

- Salamataykum, aka yaxshimisiz? Ijodlar zo'rmi? Charchamayapsizmi? Ustoz bizning xonaga bir kelib ketasizmi? go'shakning narigi tomonidan rahbarimiz Xayriddin Nosirning mag'ruru masrur ovozi keldi. Ovozki, kinoyali lutflarga qorilgan iltifotli manzirat edi.

Men ham "hozir yetib boraman" deya go'shakni tashladimu uning huzuriga yo'l oldim.

Rahbarning qabulida odam siyrak ekan. Bir oz fursatdan so'ng o'tirgan xonamizda bulbul sayrog'i jarangladi-yu kotiba qiz o'midan shiddat bilan turdi-da, rahbarning xonasiga kirib ketdi. Qaytab chiqqach, "siz kirar ekansiz" deb menga yuzlandi. Eshikni taqillatib ichkariga kirdim.

-Mumkinmi, aka, - dedim.

-Ey, ey, ustoz keling, marhamat, marhabo. Xush kelibsiz. Qadamlariga hasanot, - deya u men tomon quchoq ochib kela boshladi. Ikkalamiz achiomlashdik. U menga o'tirish uchun joy ko'rsatdi. Ro'baro' o'tirdik.

-Yaxshimisiz, - deyman.

-Yaxshi. O'zlaridan so'rasak? Kamnamo, - deydi.

-Yomonmas, topshiriqlarni bajarib yuribmiz, - deyman.

U paxta gulli choynakdan bir piyola choy qo'yib menga uzatdi.O'ziga ham bir piyola choy qo'yib, sekingina xo'rillatdi.

-Viloyatlardagi qalamkashlarning ijodiy faoliyatining yoritilishi qanday boryapti, - so'roqlaydi.

-Yaxshi ketyapti, yaqinda Samarqanddan G'ulom Ali keldi. Yangi dostoni bilan romani kitob bo'lib chiqibdi. Shuni opkeldi. Keyin Buxorodan G'ulom Shomurodning asarlari peshma-pesh berilyapti. Vohadan va vodiyyadan ham yoritilish yomon emas, - deyman.

-O'zingiz nima qilyapsiz? Yangisidan bor deb eshityapmiz, kitob chiqarishga tayyorgarlik ko'ryapsizmi? deya so'roqlaydi.

-Yo'q, aka, bizda ijodiy qisirlik. Onda-sonda bir narsalar qoralab qo'yemasak, buyog'i mardikorchilik, - deyman.

-Ishlash kerak, ijod qilish kerak, ana shu narsalar qolar ekan. Qolgani befoyda, - deydi u.

-Albatta, - deyman yuziga qarab. Siz ancha sermahsul shoir chiqdingiz. Har kuni she'r yozasiz. Maqola, mansura, tarjima qilasiz. Tinim yo'q sizda. Xudo kuch-quvvat bersin. Ko'z tegmasin.

Shunda u menga bosibroq tikiladi. Gapning mag'zini chaqmoqchi bo'ladi. Lutfning xushomad yoki kinoya ekanligini bilmoga urinadi.U oshkorra maqtovni unchalik xush ko'rmaydi. Menga ham shubha aralash qaraydi. So'zimning rostu yolg'on ekanligini bilishga kirishadi. Sekingina so'roq qila boshlaydi:

-Siz ham maqtovga saxiysizda, uka.

-Yo'q, aka, bor gap ham shu, - deyman.

-Nimasি bor gap shu? deydi u.

-Butun ijod ahli sizga havas bilan qaratotganidan bexabar ekansiz-ku! deyman atay.

-Qo'ysangizchi? deya u kelinchakdek uyaladi.

-Siz ancha ilg'or bo'l dingiz. Atrofingiz to'la shogird. Hozir bunaqasi kam. Sizdagи odamgarchilikning maqtalishini aytmaysizmi? Balki, bu o'zingizga bilinmas. Lekin havas qilishga arziysiz. Sizga hasad qiladiganlar ham kam emas, buni esingizdan chiqarmang. Tilni yaxshi bilasiz. Bu sizning eng katta yutug'ingiz. Atrofingizdagilar ham ziyrak va sezgir, - deyman.

-Odам degani hammaga yaxshilik qiladigan va kamtar bo'lishi zarur hamda shart deb hisoblayman, - deydi.

Rahbarimiz nedir demoqqa shaylandi. Men tilimni tiyib jim turaman. U yuzini osmonga qadab, bir muddat xayol surib turdi.

Keyin katta kallasini yerga tashlagancha unsiz o'tirdi. Nimanidir mulohaza qilardi. Piyolasidagi choyni bir himo bilan ko'tarib ichib yubordi. So'ng yuzlarini kaftlarining orasiga solib ishqaladi-da, amru ma'rufga o'tdi:

-Uka siz hali yoshsiz. Sharointingizni yaxshi bilaman. Qishloqdagи og'aynilarni ham unutmang, holidan xabar olib turing. Bu dunyoda hammamiz omonat ekanmiz. Yigitning uyi tinch bo'lsa, qolgani o'z-o'zidan bo'p ketaveradi. Oila bu katta qo'rg'on ekan. Ishxonadagi gap-so'zlarga unchalik e'tibor berib o'tirmang uka, bularning bari o'tkinchi. Sizu bizdan avval ham bo'lgan, hozir ham bor, keyin ham bo'laveradi. Uni hech kim to'xtatib turolmaydi. Shunday ekan siz sira ham ijoddan to'xtamang. Mening sizga yagona maslahatim shu. Ha, aytmoqchi maishatingiz qanday? Pul, moyana yetarlimi? Yordam kerak emasmi? Agar zarur bo'lsa aytting. Muhayyo qilamiz.

Olampanoh ko'zlarini ma'yus mo'litratib kaminaga olam-jahon pandu nasihatlar qildi. Yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi. Men ham oyoq-qo'li bog'langan odamday jimgina turib uni tingladim. Uning asosiy gap maqsadga o'tishini intiq bo'lib kutardim. Rahbar olampanoh buni payqamasdi. Yoki ilg'asa ham indamay kezi kelishimi kutib o'tirardi.

Sabrim chidamay, buyog'i boshimni silab aytgan so'ng qaytarimni o'ylab, sekin so'radim:

-Aka, uzr,chaqirtirgan edingiz. Endi shunga ul-bul topshiriqlar bo'lsa aystsangiz. Ko'p vaqtingizni oldim. Qabulingizdagи odamlar ham kutib qolishdi. Hammasi meni yozg'irib o'tirgan chiqar.

-Qo'ysangizchi uka, - dedi u bepisand qo'l siltab. Kutsa kutar. Siz bilan diyorga nima yetsin. Yaxshigina suhbatlashib o'tiribmiz

-Menden boshqa ishlarining ham bordir. Halaqit bermay degandim. Harna, katta idora, o'ziga yarasha tutumi bor, - deyman.

-Yo'q, uka xavotir olmang. Hammasi joyida bo'ladi, - deydi.

-Ha, mayli, - deyman sabrsizlik bilan.

-Viloyatdagи ijodkorlar bilan aloqalar yaxshi dedingiz. Shu rost gapmi uka, - deya u qiziqsinadi.

-Ha, rost, tinchlikmi? Nima gap bo'lgan ekan? deyman.

-Yo'q, o'zim bir tekshirib ko'ray devdim. Harna ular ham qalam tebratib yurishibdi. Namunalaridan o'quvchilarni bahramand qilsak yomon bo'lmasdi. Buyam bir ko'ngil-da... - deydi.

-Hammasi joyida. Ko'nglingiz to'q bo'lsin. Ular bizdan ayniqsa, sizdan minnatdor. Har kelganida bu yerdagilarni, sizni alqaydi, - dedim.

-Ey, zo'r ekan-ku! deydi u. Uka ularga topshiriq bersa bo'ladi yoki yo'q?

-Bo'ladi. Nega bo'lmas ekan. Nimani bajarish kerak o'zi? deyman shoshibroq.

-Shoshmang uka, ular ishonchlimi o'zi? deydi u hadiksirab.

-Ha, bahuzur, - deyman bamaylixotir.

-Uka topshiriq maxfiy edi. Ya'nii xosroq. Siz ham begona emas, lekin gap-so'z chiqmasin deyman. Shunga og'zi pishiq odamga topshiriq bersak. Ming qilsayam begona begona da, - deydi u.

-Mayli, qo'lidan kelsa hal qilamiz. Asli nima gap o'zi? deyman.

-Uka, harj ko'payib ketdi. Ro'zg'or katta, ukalarni o'qitish, uyli-joyli qilish... Bu yoqda uyni yangilayman deb, ishtonsiz bo'lismimga sal qoldi, - deya gap boshladи. Shunga menda zo'r kitob bor. Tiraji o'n mingdan ziyod. O'z mehnatim, yuragim quri bilan tartib bergenman. O'shani viloyatlardagi o'rtoqlar orqali u yerbu yerga o'tkizsak. Sizniyam quruq qo'ymasdim. Mamadali Ergash deganlari "qip beraman" devdi, enag'arni bolasi ishini bitirdi-yu, yo'q bo'ldi.

Siz G'ulom Ali ana G'ulom Shomurodlarga aystsangiz yo'q demas. Keyin vodiy, vohadagi akalarni ham ishga solsangiz, ular sizga yo'q demaydi.

-Bo'pti, bu ishni sizga tashkil qilib beramiz. Xavotir olmang, og'zi pishiq, ko'ru kar odamlarimiz bor. Og'iringizni yengil qiladi, - deyman.

-Ukajon, gap shu yerda qolsin. Dushmanlarning qulog'iga yetsa, har xil mahobatli gaplar urchiysi. Bu ishga faqtgina o'zingiz bosh-qosh bo'lasiz. Iltimos, meni to'g'ri tushuning. Azbaroyi haddim siqqanidan sizga yorildim, ukajon. Ehtiyyot bo'ling, - dedi u.

-Bahuzur aka, men tiliga pishiq odamman. Hamma ishning boshida o'zim turaman. Tashvishlanmang, - deya uni yupataman. O'sha durdonani qaerdan olaman. Ishni boshlaylik. Qancha erta bo'lса, shuncha yaxshi bo'ladi.

-Durdonani sizga Yormat aka beradi, - deydi u. Hammasi uning xonasida taxlanib turibdi. Borib mening nomimdan olaverasiz.

-Uzr, men u kishining xonasidan o'sha durdonani ololmayman, - dedim tap tortmasdan.

-Ey, ey, nega ukajon, nimaga ololmaysiz, - deya u ham ajablandi.

-Xuddi bilmagan odamday gapisiz-a? Axir bugun azonlab u kishi amringizga binoan mendan ishdan bo'shash haqida ariza so'radi-ku! deyman.

-Bo'lishi mumkin emas, sizni xafa qilishibdi. Hoziroq u kishining tanobini tortib qo'yamiz, - deya yonidagi turgan qutidek telefonning tugmasini bosdi. Narigi tomondan:

-Assalomu alaykum Xayriddin aka, yaxshi keldingizmi? Uy-ish, ijod tuzukmi? Itingizni tishi endi yaxshi bo'lib qoldimi? degan Yormatning doimiy yalinchoq va xushomadgo'y ovozi kelib, butun xonani tutdi.

-Tuzuk, - deb uning gapini bo'lди olampanoh. Siz nega ijod ahliga durust yordam ko'rsatmayapsiz. Bu yerda oqsoqlik bor. Nega o'rtoq Buzrukovdan ariza so'radingiz. Sizga kim vakolat berdi, qani gapiring-chi?

-Kechirasiz, Xayriddin aka, aybimizni tan olamiz. Haddimdan oshibman. Tegishli choralarini ko'ramiz Buzrukov masalasida nima desam ekan, ha u kuni Pokiza opanikida o'tirganimizda bergen topshirig'ingizga muvofiq...

Rahbar shu yerda telefon go'shagini qo'liga oladi. Endi Yormatning ovozi xonani tutmay qo'ydi. Rahbar go'shakni qo'lida tutganicha yolg'on po'pisa qiladi:

-Yormat aka, sizga ko'chadagi gapni ishxonaga ko'tarib kelmang, deb necha marta aytaman. Yosh kadrlarni asrash kerak. Mayda-chuya so'zlardan yuqoriyoqda yurishni o'rganing. Hoziroq xonangizdan anovi kitoblarimni Buzrukova masalasiga opchiqarib bering. Tushundingizmi?

-Yoshi katta bo'lsayam ko'p narsalarga aqli yetmaydi bu odamning. Siz xafa bo'l mang. U kishining gaplarini ko'nglingizga og'ir olmang. Ijodni gullatib, ko'ngilni to'q qilib, o'ynab-kulib ishlab yuravering. Boyagi masalani keyinroq bafurja gaplashib olamiz. Bu gumrohning topshirig'i uchun sizdan uzr so'rayman. Meni ham ma'zur tutasiz. Ishda hammasi bo'lishi mumkin, - deya menga yuzlandi.

Biz shu tarzda xayrslashdik.

Xonamga kelsam, bir uyum kitob taxlanib turardi...

Xayriddin Nosirning yangicha-yu eskichadan ham savodi borligi rost. Zamon o'zgarib, yurt og'alarining yodiga elu ulusning qadim tarixi, an'analari, arboblari va boshqa nodir xazinalari go'yoki qorni to'yib, hazmi uchun choy ichib o'tirgan kishiga nash'asi xumor qilgandek hech kutilmaganda tushdi. Barcha dovdirab, jonsarak alfozda o'zini avlo ko'rsatib, har yerga peshkash qilardi. Harna o'zini sodiqi vafodor ko'rsatish, nedir ilinju manfaat, juda bo'limganida o'zini bechora va aftodohol ko'rsatib qo'yish.

Atrof tevarakni faqtgina ajdodlarimiz ko'rsatgan qahramonliklar, ularning jasoratlari, yozuvlari-yu asarlari, ixtiro-yu kashfiyotlari haqidagi gap-so'zlar kimo'zarga boshlandi. Ularni bizga olabo'ji, yot unsur deb o'rgatganlarni so'kishga so'z topolmay boshi qotishgan.

Yoppasiga moziyni o'rganishga, uni tadbiq etishga kirishildi. Xayriddin Nosir ham bu vaziyatda mohir sarbon kabi karvonini yo'lga boshlab borardi. Joni halak. Xato qilmaslikka chiranadi. Gir atrofdan maslahat so'raydi. Nasihat oladi. Idorani boshqarib turishning o'zi bo'lmasdi.

Xayriddin Nosir aslida men yashagan qishloq Tutlisoydan uch qir naridagi Uzoqbuloqdan. U bozorimizu mozorimiz birligini inobatga olib, menga qayishadi. Aslida, uning talabi bilan bu yerda ishlab yuribman. Rahbarni qora tortsam-da, biroq undan o'zimni opqoqhib turaman. Boshqalar o'xshab uning ro'zg'ori-yu ishlariga aralashmasdim. Va bular meni qiziqtirmsa di ham. Xayriddin Nosir meni vaqt-i-vaqt bilan xonasiga chorlab, yulu yurt haqida gaplashib o'tirishni yaxshi ko'radi. Nasihat maslahat berardiki, bu ham azbaroyi ichi achiganidan. Keyin tergab ham turardiki, buni ham aytmasam bo'lmaydi. O'ylardimki, u meni ko'rsa, qishlog'i, yoshligi va elatdoshlarini eslasa kerak...

Soyning suvlari va ziyyaratgohlarni qo'msab yurgan kunlarimda xizmat safariga otlandim. Men safarga otlangan yurtga borish uchun avvaliga o'zim yashagan qishloqning ustidan o'tish shart edi. Negaki, yagona yo'l bo'lib, u ham bo'lса, mening qishlog'im Tutlisoy orqali o'tardi. Ketar oldi rahbarimiz Xayriddin Nosirga uchrashdim. Kayfiyat chog' ekan, ancha suhbatlashdik.

"Kitoblariningizni ham birato'la opketib, pullab kelaman, yana boshqa topshiriqlar yo'qmi?" deb so'rayman. Rahbar ancha dam o'ylinib turdi. So'ng stolning tortmasini kovlay boshladи va oxiri undan yelimlangan konvertni oldi-da, "Uzoqbuloqning maktabida Oysuluv degan muallima bor, mana buni unga berib qo'yasiz. Faqtgina ehtiyyot bo'ling," deya uzatdi.

Xayr-xushlashib, uning xonasidan tashqariga chiqdim.

O'ylab qarasam, anchadan beri qishloqqa bormagan ekanman.

Fursat yetib, tegishli narsalarni xaltaga joylab, tongda yo'lда otlandim. Xudo xohlasa, to'rt soatda uyga yetib olaman. Shu

bahonada qarindoshlarni ko'raman. So'ng dovon oshib, xizmat safarimni ham ado etaman, deb o'yladim. Endi shaharda chiqayotganimda mashinamga keksa taxminan yoshi yetmishlardan oshgan shlyapali kishi qo'l ko'tardi. To'xtadim. U kishi halloslab yetib kelganicha, enkayib so'radi:

- Uka, qaergacha borasiz?
- Amaki yo'l bo'lsin sizga?
- Buxoro tomonlarga bormoqchi edim.
- Yo'lrim Qarshi tarafga edi-da!
- Unday bo'lsa meni Samarcandgacha opketing. Iltimos sazamni o'dirmang? deya o'tinadi.
- Bo'pti, o'tiring, yo'lda gap berib ketasiz...

Chol aftodahol edi. Ko'zlarini kirtaygan. Suraygan burnini kosovday qo'llari bilan ishqab qo'yadi. Yo'l-yo'lakay ob-havo, narxu navodan gaplashdik. So'ng safarga chiqqanimni va shu bahona uyga borayotganimni, tug'ilgan yurtim bilan bog'liq istiholalarimni ham aytdim. To'y-ma'rakalarda qatnasha olmayman, dedim. Ertaga bolalarim nima qiladi? O'zim-chi? O'zim? Mana shunday narsalarni ham o'yamasda bo'lmas ekan, dedim.

- Uka, - deya gap boshladi sheringim. Bunday savdoning eng yomoni mening boshimdan o'tdi. Keling, uzoq yo'l, sizga bir boshidan gapirib beray. Asli Oqtovdanman. Otamning otini Rajab degan. Onamning oti esa - Kunsuluv edi. Onam ilg'orlardan edi. Qishlog'imizda eng birinchi bo'lib, paranjisini o'tga otgan, yoshkamol bo'lib, faol ayol u qizlarga rahnomalik qilgan edi. Otam men hali tug'ilmasidanoq urushga ketadi. Urushdan salkam yetti yil deganda qaytdi. Xudoga shukrki, tani-joni sog' edi. Mana shu orada men tug'ilaman. Onamni u dalada o'roq o'rib, mashoq terib yurgan damda to'lg'oq tutganida, Mahkamtosh kampir doyalik qilgan ekan.

Menga Omon degan ismni qishloq oqsoqoli qo'yadi. Maqsad shu ediki, mening ismim timsolida yurt obod, urushning tezroq bartaraf bo'lishini va boshqa xayrli niyatlar bor bo'lib oxiri baxayrlik to'yg'uni ko'rmoq istashadi...

Otam urushdan qaytgan kezlarini men undan begonasiraganda paytimda, onam:

- Bolam, begonasirama, otang bo'ladi. Urushdan qaytdi. Senga ko'p o'yinchoqlar opkeldi. Hali seni maktabga olib boradi. Katta odam bo'lib ketasan. Otga mindiradi. Bozordan senga har xil shirinliklarni opkeladi. O'zing ham otam qaerda? Qachon keladi? deya meni qiyarning-ku! Mana endi hammasi joyiga tushdi. Shukrki, otang bag'rimizga eson-omon qaytdi. Chop, otangning oldiga bor. Begonasirama...

Otam kulib-kulib meni quchadi. U boshimni silab, o'zining boshidan o'tganlarini birma-bir ko'z oldidan xayolan o'tkazdi. Taqdiridan rozi bo'ladi. Daydi o'qqa uchmasdan uyiga sog'u salomat keldi. Otamning ko'zida yosh qalqib va yuzi aro boshimga tomchiladi. Men esa unga ajablanib qarayman. Onam ham bu holni ko'rib turib, "urush ham uning diydasini qotirmabdi," deya o'laydi.

Yoshligim oxir kechgan.

Daftar, qalamni latta xaltachaga solib, qishloqning bir chekkasidagi maktabga qatnardik. Maktab ham omonatgina qurilgan edi. Yozda issiq, qishda sovuq bo'ladigan bu dargohda u o'n yil o'qidim. Menga qo'shilip ikki ukam ham bu yerda tahsil olardi. Men sho'x edim. Qizlarning jamalagini bir-birovlarinikiga bog'lab qo'yardim. O'rnidan ilkis turgan qizlar dodlashardi. So'ngra ular meni yozg'irishardi. Men bolalarni bir-biriga tezlab, gij-gijlab, urishtirardim. Janjal bo'lganida, o'zim silliqgina juftakni rostlardim. Oxiri hammasi fosh bo'ldi. Ular meni tutib olib rosa do'pposlashadi. Men esa yana hech narsa ko'rmagandek yuraverardim. Vaqt yetib, maktabni ham tugatdim. Otam meni Samarcanddagi muallimlar tayyorlaydigan dargohdan biriga opkeladi. Hujjatlarni topshirdik. So'ng shahar chetida - uzoq qarindoshlarimiz yashaydigan Arabxona qishlog'idagi Mamasodiq boboning uyiga kelib qo'namiz. Men bu yerda turib o'qishga tayyorlangan kishi bo'ldim.

Mamasodiq boboning ro'zg'orida ham ul-bul yumushlarga qarashib turdim. Men o'qishga kira olmadim. Otam ham, uy egasi Mamasodiq boboning ham dilkira bo'ldi. Ertasiga ertalab, tong yorishsa, ota-bola qishloqqa qaytishimiz kerak. Biroq, borgim yo'q. Oriyat yo'l qo'ymaydi. Oxiri qolgan-qutgan kuchimni yig'dimu otamga yuzlanib va dardimni aytdim:

- Ota, men endi qishloqqa bormayman. Borishdan uyalaman. Shu yerda yoki boshqa joydan ish topib, ishlab, so'ng, kelasi yili o'qishga kirib, uyga boraman. Enamga ham tushuntirib aytung. Menden xafa bo'lmasin. Men baribir o'qiyman. Hali ko'p ishlarni qilamanki, ko'rib hayron bo'lasizlar. Ota, ertaga o'zingiz qishloqqa ketavering, ozroq pul-muldan menga tashlab ketsangiz bo'ldi. Ertalab otam qishloqqa qaytib ketadi. Men biroz hovurim bosilguncha Mamasodiq bobonikida yurdim. Keyinchalik taqdiri tavakkal deb Toshkentga ish qidirib keldim.

Bu yerga kelib, bir no'g'oy kampirning uyiga joylashdim. No'g'oy kampirnikida mendan boshqa Xayriddin degan bir yigit ham bor edi. Sherigim bilan tanishdim. Uch-to't kun o'tib, u meni o'zi ishlayotgan zavodga boshlab keldi. Meni zavodga ishga qabul qilishdi. Ijarachi no'g'oy kampir bizlarni nazorat qilardi. Maishatlarimiz yaxshi edi bu orada otam ham kelib, ahvolni bilib ketdi. Shu bilan birga o'qishimni ham surishtirdi. Men hali shashtimdan tushmagan edim, "ota, baribir o'qishga kiraman," dedim.

Oladigan maoshlarimiz ham tuzukkina edi. Bu mavsumda men muallimlar tayyorlaydigan kursning sirtqi bo'limiga xujjatlarini topshirdim. Tunu kun boshimni ko'tarmasdan kitob o'qidim. Bu gal omadim chopdi. Imtihonlardan o'tdim. Meni o'qishga qabul qilishdi.

Otam xursand bo'lganidan no'g'oy kampirnikiga qo'y so'yib keldi. Do'stu birodarlarimga ziyofat berdi. Otam bolasining baxtidan xursand edi.

Men o'qishda yangi odamlar bilan tanishdim. Turli toifa inson... Hammasi xursandchiligidagi sherik izlaydi. Barchasi ham olis manzillarni mo'ljalga olishgan.

Ana shunday kunlarning birida no'g'oy kampir meni yoniga chorlab, iymanibgina turgan bir qiz bilan tanishtirdi:

- Bu qizning ismi Farida bo'ladi. Akamning qizi. Bo'lajak do'xtir. Hozircha ota-onasi olis va uzoq komandirovkaga ketyapti. Shuning uchun bu qiz Farida biznikida turadi. Bir-birovlaringga yordam etasizlar.

Shundan so'ng no'g'oy kampir Faridaga meni ham kasbi-korimni, o'qish-turishini aytib tanishtirdi.

Ne qilayki, men Faridaga shaydo bo'ldim. Ishdan erta qaytaman. No'g'oy kampirning yumushlariga yollashaman. Shu orada Faridaga ham yordamimni ayamayman... Unga har turli latifalaru rivoyat-hikoyatlarni aytaman. She'ru dostonlarni ham so'zlardimki, oxiri ko'rinnasdi.

Men qizni avradim. Va ko'nglini ham oldim. Buni esa no'g'oy kampir ham payqadi.

- Hov, bola, - dedi no'g'oy kampir menga. - Bu ishni chidaganga chiqqargan, yarim yo'lda qochadigan bo'lsang, holingga maymunlar yig'laydi. Qadamingni bilib bos, ko'zingga qara, boshingga yomon savdolar tushmasin.

-Men mardman, xola, - dedim, - ko'nglim amri nimani buyursa shuni qilaman. Birovga ziyonim tegmaydi. Faridaning muhabbatni men uchun sharaf. Men bundan baxtiyorman.

-Ey, bola, sen bunaqangi havoyi gaplaringni qo'y. Senga ishonish qiyin, negaki, ko'zlarining o'ynaydi. Sen bola quvga o'xshaysan. Hali boshingda ko'p tashvishlar bor ko'rindi. Odam qadrini bilmaydiganga o'xshaysan. Hozir ham kech emas. Hayotingni to'g'ri yo'lga boshlab yuborishing mumkin. Aks holda, senga qiyin bo'ladi, - dedi no'g'oy kampir.

-Siz noto'g'ri fikrlayapsiz, - deyman, - mening taqdirim hali hech kimga ma'lum emas. Siz esa bemalol fol ochyapsiz.

-Eh-he-e, bolam, - dedi no'g'oy kampir. Men fol ochmayapman. Bor-yo'g'i taxmin qilyapman, xolos. Buvim sinchi bo'lgan. Nima bo'lgandayam sen mendan xafa bo'Imagin.

Suhbatimiz shu bilan tugaydi.

Farida bilan to'yimiz dabdaba-yu as'asalardan holi tarzda o'tdi. Ota-onalarimiz bo'layotgan to'yimizdan norozi edi. To'yda kuyov tomon qarindoshlardan vakil yagona Xayriddin edi. Tantana tugagandan so'ng kelin-kuyov no'g'oy kampirning do'ltaxonasiga joylashdik. Biroz vaqt o'tib, Faridaning otasi shaharning o'rtasidan ikki xonali uyni bizga sovg'a qildi. Endi men butunlay boshqa olamga kirgandim.

Qaynotam o'qishni tugatayotganimni bilib, mashina sovg'a qildi. Va shu bilan birga meni o'zim bitirayotgan dargohga o'qituvchi qilib ishga joylashtirdi.

Tan olaman, yurish-turishim osongina o'zgardi. Endi men ham har qanday davralarga moslasha oladigan odamga sekinlik bilan aylanayotgan edim. Men erishayotgan yutuqlarim uchun qaynotamdan minnatdar edim. Negaki, uyda ham, ko'chada va o'quv dargohida ham obro'im baland bo'ldi. Faqat otamgina o'g'lining obro'siga bepisand edi. Onam sandiqdagagi seplarini yoyib yig'lardi...

Musofir yurtda birgina Xayriddin mudom mendan xabar olardi. Uning ustidan istehzo bilan kulmoqchi ham bo'lardimki, lekin afsuski, bunday qila olmasdi. Negaki, u meni o'tmish bilan bog'laydigan yagona ko'priki edi.

Taqdir ekan, qarang, men ishxonamizdagi boshi ochiq bir ayolni yoqtirib qoldim. Avvaliga ko'nglini oldim. Keyin qo'l solib ko'rdim. Hammasi joyida. Ayolning ham menga mayli bor ekan. Mashinamda shahar aylantirdim. U bilan oshiq-ma'shuqligim davom etardi. Turli xil ziyoftlar, antiqa sovg'a-salomlar uyuhshtirildi. Oxiri voqealar rivoji shu bo'ldiki, mening sarguzashtlarimni kimdir Faridaga yetkizadi. Orada katta janjal qo'pdidi...

Boshi ochiq ayol do'xtirdan noma keltiradiki, unda berilgan noma egasi ikkiqat, unga parvarish va mehr zarur. Mushtiparni avayalamoq shart, deb yozilgan ekan.

Ayol bu xatni qo'lida tutib, avvaliga ishxonadagi rahbarlariga aytadi, so'ng uyg'a kelib, bor gapni Faridaga aytadi-yu ketadi. Qolgan tomoshoga o'zi aralashmaydi.

Xotinin mashinaning kalitini opqo'yib, meni ko'chaga chiqarib yuboradi. Keyin ishdan bo'shattiradi.

Men yana o'sha eski no'g'oy kampirning uyiga qaytib keldim. Kampir kiritmadni. Rosa yalinib yolvorganimdan keyin izn berdi. Bu yerda ijarada yashab yurdim. Xayriddinni so'rishtirdim. Bu orada u ham oila bo'libdi. O'qishni tugatib, qaerdadir ishlayapti ekan. O'zim ham bosib so'ramadim.

Kunlardan birida xotinin bolalarim bilan kelib, meni uyiga opketadi. Kechga tomon qaynotam ham yetib keladi. Men esa o'zimni qaynotamning oyoqlariga ostiga tashlayman.

-Men aybdor emasman, - deyman. Bu tushunmovchilik. Men yolg'iz Faridani sevganman. U ayol jodugar. Oilamga rahna solmoqchi bo'lgan. U manjalaqi meni sharmanda qilmoqchi. Negaki, menda boylik, obro', e'tibor, izzat-hurmat va qolaversa, sizdek suyangan tog' bor. Shunga hasadi keladi.

Qaynotam mening gaplarimni bo'lmasdan eshitib o'tirdi. Boshini chayqadi. Uning bolasiga achingani-yu afsuslanayotganini sezib turardim. Unga rahmim keldi.

-Sen bolada ko'p gap borga o'xshaydi, - dedi qaynotam. Avvalasiga ajal xudodan. Lekin sen o'z ajaling bilan o'lmaydigan ko'rinasan. Ikki yolg'on, bir qasam deyishadi. Qasamdan qo'rqqin bola. Sen yaxshilikni bilmaydigan, oq qorani farqlamaydigan, nonu namakni unutgan odam ekansan. Mayli, qizimning taqdiri sen bilan qo'shilgan ekan, peshonamdan ko'raman. Lekin sen ablah va iflos ekansan.

U shu gaplarni aytadi-da, o'rnidan turdi.

Falokat ustma-ust kelarkan. Ishlarim orqaga ketdi. Yaratganga ham qilgan ishlarim yoqmadi chog'i va bu yog'i qaynatamning qahri qattiq kelib, ishdan ketdim. So'ppayib, uyda o'tiradigan bo'ldim. Ilgarigi davru davronim o'tdimi deyman, birov hattoki, nima qilyapsan deya eshigimni qoqmaydi. O'zimni qo'yarga joy topolmayman. Dunyolarga sig'may ketaman.

Uyda yuramanu dekin bu yerdagilar meni hisobdan chiqarishgan. Men bilan birovning ishi yo'q. Boru yo'qligim bilan birov qiziqmaydi. O'zimga o'zim andarmon bo'lib yuraman. Bunga ham sababchi o'zim, deb o'ylayman. Idish tovoqlarimni ham alohida qilib berishgan. Alohida xonada yotib turaman. Ular bir kosa ovqatimni o'lganining kunidan qo'yib ketishadi. Choyni o'zim damlab ichaman. Dasturxonlarni o'zim solaman, o'zim yig'aman. Kirlarni ham o'zim yuvaman. Bir azobda kun kechira boshladim. Biroq, uydan bir gap tashqariga chiqmaslik uchun qozonning qopqog'ini mahkam tutib turardik...

Men endi sekinlik bilan xuddi hayotni o'rganishni boshlagan boladek, sekin uydan chiqib, tashqaridagi dunyo boshqa olamga ham qiziqsa boshladim. Va bu olamga astagina kira boshladim ham. Tashqari deganim bu ko'cha choyxonada o'tiradiganlarning yoniga borib kelib, shu yerga sekin bo'lsa-da tanda qo'ya boshladim. Bu yerdagilarning ham o'z dunyosi bor edi. Ajabki, bu yerda ham olam muhokoma qilinardi. Taxminu tuskollardan tashqari, xukmi xulosalar ham yasalardiki, eshitib hayron qolardingiz. Ular ham hayotni o'zlaricha kuzatardi. Meniyam bu davra quchoq ochib kutib olmadi. Negaki, ular mendan cho'chishgandi. Hadiksirab so'z boshlardi. Davrada o'tirsam, ular birdaniga jim bo'lib qolib, gapning o'zani boshqa tomonlarga burilib ketayotganligini sezib turardim. Shashti birdaniga tushgan davra, birdaniga jo'n suhbatga o'tardi. Ular meni xushlamayotganini sezib qolaman.

O'ylashimcha, ular meni mening kimligimni orqavarotdan eshitgan va taqdirimdan xabardor edi. Davradan menga odatiy savollarni tashlab ko'rardi:

-Domla, hozirgi yoshlar ham avvalgilarga o'xshamaydi!..

-Bu gap eramizdan oldin ham bo'lgan ekan, Manbalarda buyam qayd etilgan, - deyman pinigimni buzmay.

-Ilgarilari muallim koyisa, ota-onalar ham ma'qullardi, hozir esa iddao qiladi, - deydi yana biri. Bolasiga qo'shilib kelib, sizni izza qiladi.

-Besh qo'l barobar emas. Hammasi ham siz aytgandek, betgachopar emas. Orasida yaxshiliyam ko'p, - deyman.

-Nima bo'lgandayam, sizdek domlalarga qiyin bo'ldi. Avvallari pichoq moy ustida edi. Endi zamон ham odamlar ham o'zgardi. Bir

gap kamlik, ikitiasi esa ko'plik qiladi, - deya yana boshqasi pisanda qiladi.

-Ellik yilda el, yuz yilda qora qozon o'zgarar ekan.Bunga hayron bo'lmaslik kerak. Zamon shiddat bilan olg'a ketayotgan bir paytda eski tutumlar bilan yashash har qanday ilg'or fikrli kishini toliqtirib qo'yadi.Buninguchun sira qayg'urib o'tirish kerak emas, - deyman.

Shundan keyin davra bir pas jim turadi. Orada suhbat barchaning boshida aylanib, tahlil qilinayotganini anglayman. Biroq, oldinda yana savollar boshlanishi tayinligini ham unutib bo'lmasdi. Mana aytganim bo'lidi. Yana biri boshini ko'tarib savol tashlaydi:

-Zamonga qarab ish ko'rish kerak, deysizda- a domla?

-Zamon ham makon ham joyida turibdi. Faqatgina g'oyalar o'zgargan. Ularni ro'yobga chiqarish uchun fursat kerak. Biz mana shu yerda sabrsizlik qilamiz. Aslida, mavridi bilan hammasi o'z-o'zidan joyiga tushib ketadi. Bu yumushlarning bizga bog'liq joyi faqatgina mana shu yerda. U yuqridan boshqarilishini bilib olsak, ko'nglimiz joyisha tushardi, - deyman.

-Yashang, domla, to'g'ri aytasiz, zamon emas, o'zimiz o'zgarib boryapmiz, - deya biri gap boshlagan damda, yana boshqasi:

-To'g'ri-ku-ya lekin deganlari ham turnalarday uchib ketdi,- deya shartta so'zni bo'ladi.- Ana Shukurning otasi uni bola-chaqasi bilan ko'chaga chiqarib yuboribdi. Narigi ko'chadagi Norqul qassob onasini qariyalar uyiga oborib tashlabdi. Ilgarilar bunday ishlardan hayiqishardi. Uyatu andisha bor edi.

Davraga razm solsam, ular meni qizitishi bilan birga o'zları ham otashga aylanib borardi. Ammo hammasi ham mening og'zimga qaragan. Birgina men ularning e'tiborini tortib o'tirardim. Bu holat menga davraga kurash uchun tushgan polvonni eslatardi.

Polvon raqibining qay holatda, qay paytda qaysi usuldan foydalanishini o'ylaganidek, mudom sergak turadi. Mening ahvolim ham shunday edi. Davradagilar yoshi-yu kasbiga qarab turli tuman savollar tashlaydi. Uning zaminidagi mazmun mohiyat o'zimga ham ayon bo'lardi.

-Sarmoya hayotni belgimasligi kerak, - deydi yuzi ham, kiyinishi ham sipo bir kishi. Bu odam bir paytlar do'kondor bo'lganligini keyinchalik bilib olaman.

-Hayotni birinchi navbatda muhabbat va keyingi galda esa pul belgilashi bor gap, - deyman unga qarab turib.

-Inson pulu mablag'lardan yuqori turishi kerak. U oldingizga o'tdimi, tamom, xudo urdi, deyavering. Ko'z oldingiz qorong'ulashib, ne qilaringizni bilmaysiz. Boylikni hamma ham ko'tara olmaydi, - deyman.

-Dunyoda hamma boyu badavlat bo'lsa, unda kambag'allar kimga kerak bo'ladi. Axir u ham olamda rizqini terib yurishi uchun yaratilgan-ku! Uyam men nochoru nodon bo'lib yashayman, deya dunyoga kelmagan-ku! Besh qo'l barobar emas, qo'yinglar, shu gaplarni kun bo'yи faqat shularni so'zlashamiz. Birovga foydamiz tegmaydi-yu, lekin yo'l-yo'riq ko'rsatamiz. Boshimizga kelsa, ko'raveramiz-da, - deya keksarog'i gap tashlaydi.

Davra menga va men ham o'z-o'zidan davrada o'tirgan bu odamlarga qo'shilib borardik.

Ermak uchun bu yerda turli o'yinlar tashkil etilardi. Shaxmatu shashkadan tortib qimorgacha bu go'shada tong otgunicha o'ynalar ekan. Bu orada esa burchakdag'i o'choqda qozonga ham yegulik tashlab qo'yishardi. Dasturxon ham atrofdagilarning himmatiga qarab tuslanib turar ekan.

Suhbatimiz birdaniga so'ndi. Negaki, kech kirib, hamma uyiga shoshila boshladи

Sekin asta men men ham uydan otilib chiqardimu mana shu joyga shoshilar edim. Bu yer meni o'ziga ohangrabodek jalg'eta boshlagan edi. Inson barcha sharoitga kshnika borishi va shu tariqa o'zida yashovchanlik qobiliyatini namoyish etayotganini o'zi ham ilg'amasa kerak, deb o'ylab qoldim. Bunga men o'zim misolimda amin bo'la boshlagan edim. Ammo nima bo'lganda ham, bu choyxonadagilar mana shu olamda o'zlarining borligini ko'rsatib qo'yishlari va turli qarashlarini hamda shu bilan birga g'aroyib fikrlarni o'rtaga tashlab kishini shoshirib qo'yardi.

Biroq, mening ham bu davraga singib ketolmayotganim goh-gohida ayon bo'lib qolardi. Qozondagi o'pkadek suvda qalqib turardim.Ovunchoq topganimdan, ko'nglim chigilini shular bilan biroz bo'lsa-da, yozilayotganidan ojiz qalbim bilan sezib turardim. Ammo yuragim baribir to'lagicha ochilmasdi. Bu menga ham qorong'u edi.

Choyxona yilning barcha fasllarida ham olomonga to'la bo'lardi. Keluvchilar ko'rgan kechirganlarini shu yerga kelib, o'rtaga tashlardi-da, biri olib, biri qo'yib muhokoma qilishardi.Bu yerda men avvaliga aroq ichishni, ichganda xam o'zimni bilmaydigan darajada yetdim. Va shu orqali tanimda bir huzur ham tuyadigan bo'ldim. Boshimda tunu kun tinchlik bermaydigan, meni bandi qilgan har neki o'y-yu xayollar birdaniga g'oyib bo'lib qolardi. Shunda men o'zimni juda erkin sezardim. Dunyo ko'zimga yana ilgarigidek totli ko'rina boshlardi. Menga chalg'iganim va biroz bo'lsa-da tashvishlarni unutganim hisob edi.

Mastligimda butun olam oyog'im tagida yotgandek bo'lardi. Bu ham mayli, men bu yerda bora-bora qimor ham uynay boshladim. Kech kuz edi. Shamol aralash yomg'ir ertalabga qadar betinim yog'di. Azonlab o'rnimdan tursam, xotinim o'yg'onishimni kutib o'tirgan ekan. Yuz-qo'limni yuvib kelib, dasturxon yoniga o'tirdim.

-Tomdan chakka o'tyapti, tog'ora-paqirlar to'lib bo'lidi. Tepaga chiqib tuzatib tushing, - degan amr bo'lidi.

Og'ziga talqon solgan odamday jim o'tirardim. So'ng, narvonni topdimu devorga taqab, tomga o'rmalay boshladim. Kechagi ichgan aroqlarim boshimni aylantirar edi. Nimagadir shu ishni qilgim kelmasdi, oyog'im tortmayotgandi. Tomga chiqish men uchun juda azob edi. Yoshligimda yerga yursa osmonga sapchiydigan, shiddatkor bola edim. Tovonimdan ham, ko'zlarimdan ham o'tchaqnab turardi.

Bir amallab tomga chiqdim. Havo aynigan, shamol turib, yana yomg'ir yog'adigan ahvol yuzaga kelmoqda edi. Bulutlar yanada kuyuqlashgan. Mo'ljal qilib, teshilgan tunuka tomon boraman. Shu zaylda ketayotganimda, bir payt ne falokat yuz berib, oyog'im sirpanib ketdi. O'zimni bajara olmay qoldim. Tasavvvur qiling, mana shu gavdam bilan tomdan yerga quladim. Xudo deganim bor ekan, faqatgina bir qo'lim bilan bir oyog'im sindi. Qariganda bitishi qiyin kecharkan. Ancha azob tortdim. Hattoki, xojatga ham birovning yordamisiz borolmas edim. Boshida xotinim bilan bolalarim o'lganining kunidan qarab turishdi. Men ularning joniga tegayotganimni sezardim. Bir kuni hech kim oldimga kirmadi. Jim yotaverdim. Ikkinchchi va uchinchi kunni ham shu holda o'tkazdim. Uchinchi kun juda tashvish tortdim. U yoqdan bu yoqqaga ag'darilib olishim mushkul edi. Yordamga muhtoj edim. To'rtinchi kuni ertalab, qaynsinglim keldi. Men yotgan xonaning eshigini ochdi-yu burnini jiyrildi.

-Faridalar Qrimga ketishdi. Akvariumdag'i baliqlarga yemak berish uchun keluvdim. Uyam tugab qolibdi, oxirgisini berdim.

Magazindan ularga ovqat opkelaman. Siz uydagilaringdan birovini chaqiring. Qarab tursin yoki bo'lmasa sizni o'sha yerga opketib qarashsin, - dedi.

-Yaxshimisiz, Naima, axir ular yozda ketardi-ku! deyman xo'rligim kelib.

-Ixtiyor o'zida, qachon xohlasa, o'sha paytda ketaveradi. Ayni o'yinab kuladigan vakti kelgan, - deydi bepisandgina.

-To'g'ri aytasiz, ixtiyor o'zida, meniki esa birovning qo'lida,-deyman kesatgandek bo'lib.
 Biroq Naima parvo ham qilmaydi. Aslida, bu gaplar unga zarracha bo'lsa-da, ta'sir kilmayotganligi anglab turardim. Ayni kalomlar Naimaning tabiatiyu ruhiyatiga xam mutloqo zid edi.
 -Domla pochcha, siz bularni boshida o'ylishingiz kerak edi. Opamni oyoqosti qilgan paytingizda bu ko'rgulik borligini umuman o'ylamagansiz, mana oldinda sizni kutib turgan taqdir bu ekan, - deydi shartta.
 So'z shu yerda tugaydi. Uning ham va boz ustiga mening xam gaplashishga hushimiz qolmagan edi. Naima eshikni yopdi-yu tashqariga chiqib ketdi. Xonada yana o'zim eski dardlarim bilan qoldim. Osmon yiroq, yer qattiq, deganlarini shu yerda bildim. Sim karovatda oyoq-qo'li bog'langan holda yotganimcha dunyoga, taqdirimga lan'at aytardim. Birov kelib mendan xabar olmasdi. Eng og'ir ko'rgulik mana shu edi menga. Tanimda simillab turgan og'riq menga ta'sir o'tkaza olmasdi. Men bunaka azobga ko'nikib bo'lib oladim. Va bundan to'lig'icha kutilmoq istardim. Gapning rosti, joninga qasd qilmoqchi ham bo'ldim. Biroq, noiloj edim.Qo'limdan hech narsa kelmasdi.

Mening ko'zim endi ochildi. Odam har narsasiz yashashi mumkin ekanu lekin orsiz yashay olmaskan. Yaxshiyamki, olamda nomusu or yaralgan ekan. Ko'p narsalarni qo'ldan chiqarib boshlagan ekanman, deya uylay boshladim. Shu damda otam bechoraneng menga qilgan olamjahon nasihatlarini beixtiyor eslayman.

"Bolam, enang bilan meniyam, manovi qarindosh urug', og'aynilar niyam o'ylama, mayli. Lekin elni, tuproqni o'ylagin. Yaxshidan yaxshisi ko'p. Ko'cha to'lajaydi. Iliq gapirganning ortidan iliqib ketaversang oxiri nima bo'ladi? Urug'ni bulg'ading, bola. Lekin bir narsani bilib qo'ygin bolakay, hali ko'p narsani ko'rasan. Uvol yomon narsa. Mayli boraver, oldingdan oq kun tug'sin!"

Bugungi kunda kelin o'sha otaning o'g'lini tashlab, sayru sayohatga ketgan. Er esa uuda oyoq-qo'lsiz yotardi. Gunoxkoru jabrdiydani istab, uni yozg'irishga fursat yo'q. Hamma bir-biridan o'tgan. Hamma haq.

Ko'hna tarixni eslagim kelmaydi. Bundan xotiram og'riydi. Umrining esa ko'pi o'tib xam bo'ldi. Noumid bo'laman. Xo'rligim keldi. Bاليقىلىك mehrga, izzatu e'tiborga ham noloyiq ekanligimdan nafratlandim. Izzatim bitganini sezdim. Ko'rpgaga boshimni burkadimu yig'ladim. Ko'p va o'ksib yig'ladim. Anchadan beri yig'lamagan edim. Hayhotdek hovlida, qorong'u torkunjakli xonada, sim karavontning ustida oyog'u qo'li singan odamning yig'lagani juda jonli chiqargan. Ovozimni chiqarib, baralla baqirib, ho'ngrab yig'layman. Xumorimdan chiqqunicha yig'ladim. Tanimdan og'riqlar ketdi. Xayolimdagagi mushkulotlar ham tugab bitdi. Bunaqa huzurni va bunaqa halovatni yaqin orada to'yagan edim. Tanim yayradi. Gunohlarimni bir bir eslaganimda yig'i yanada kuchayadi. Og'riq esa o'z-o'zidan yo'qolib ketdi. Biroq o'rniidan siljiy olmasdim.

Bir mahal, darvoza taqillab, ovoz keldi:

-Domla, uydamisiz?

-Omon aka, ovoz bering!

-Odamni sog'intirib yubordingiz-ku!

Bu ovozlar choyxonadagi odamlarniki edi. Men ham jonholatda uydan turib ovoz chiqardim. Ular tortinib, hijolat bo'lganicha uyga kirib kela boshlashdi. "Bahuzur kelaveringlar, men kutib ololmayman," dedim. Ular men yotgan xonaga bostirib kelishdi-yu hangu mang bo'lib qolishdi. Boya yig'laganlarimdan ko'zlarim ham sal-pal shishgan ekan, chog'i, ular ham qarab qarab qo'yishdi. Vaziyatni tushuntirdim. Oradan hijolatpazlik ko'tarildi. Ulardan biri yostig'imni to'g'riladi. Yana biri oshxonaga kirib ovqatga unnadi. Biri choy keltirib, menga ham choy uzatadi. Ichdim. Dasturxonga hash pash degunicha ovqat keltirishdi. Suyuqroq joyidan menga ham suzib berishdi. Uni ham ichdim. Ozroq gurunglashgan bo'ldik. Bir mahal ulardan yoshi kattarog'i gap boshladni:

-Domla xafa bo'lmaisiz. Sizga navbatma navbat yigitlar qarab turishadi. Issiqsovug'ingizdan xabar olamiz.O'zingizni urintirmang.Hozircha Jabbor sen qolasan, domlani ko'pam bezovta qilmaylik, qani ketdik, - deya do'kondor Salim gapini tugatib yo'lga tushdi.

-O'tiringlar, gurunglashamiz, tong uzoq bo'lsa? dedim.

-Yo'q, deyishdi ular keskin.

Jabbor ikkimiz hangomalashib o'tirdik. So'ng unga ham javob berdim. Biroq u joyidan jilmadi. Unamadi. Yo'q, Salim aka bilsayam, eshitsayam xafa bo'ladi, dedi. Bu gapdan ikkimiz ham kulishdik. Gapidan Jabborning o'zi ham iljayib qo'yadi.

Jabbor bilan suhbatlasha turib, o'sha oqshom ming bir istihola bilan uyga telefon qildim. U kamni chaqirdim.

Tong otariga ukam ham yetib keldi. Uyga kirishda uni Jabbor tabassum va tavoze' bilan kutib oldi. U kam meni ko'rib avzoyi o'zgardi. "Hammasi bir boshidan aytib beraman," deya imo qildim. Dasturxon tuzalgan. Nozu-ne'matlar muhayyo. Choy keltirildi. Bir piyoladan choy ichdi. So'ng Jabbor ukamga yuzlanib:

-Aka, domla sal-pal surunganlar, unchalik xavotir olmanglar. Hammasi joyiga tushib ketadi, deydi.

-Nima bo'ldi, aka, tinchlikmi, parashyuti ochilmay qolgan uchuvchiday yotibsiz, - deya so'roqlaydi.

-Tomga chiquvdim, tunuka eskirganmi yoki boshqami, xullas, oyog'im toyib yiqildim. Bu yog'i taqdir ekan, deb osmonga ko'z tikib yotibman, - dedim.

-Tomga sizdan boshqa chiqadiganlar yo'qmidi? so'raydi ukam.

-Falokatda, haliyam xudo bir asrabdi, domlani, - deya Jabbor ukamga yuzlanadi.

-To'g'ri, belim sinib, ko'taram bo'lib qolsam nima bo'lardi, - deyman.

-Domla, yangam bilan bola-chaqalar uchun sizni yaratgan qaytarib berdi. Endi uning huzurini ko'ring. Mana ukangiz keldi, sizlar bermalol gaplashib olinglar, keyinroq kelaman, xizmatlar bo'lsa ayting? deya Jabbor izn so'ragadek bo'ladi.

-Mayli, boraqoling, uka. Xizmatingizga rozi bo'ling, rahmat, - deyman.

-Mayli, borib kelsin. Oq yo'l. Lekin yana qaytib keling,- deydi ukam unga astoydil.

-Ana, bu boshqa gap, men albatta kelaman, aka, - deydi Jabbor kulib turib.

Ukam Jabborni kuzatgani eshikka chiqadi. Bir muddatdan keyin ukam qaytib keladi.Uning tusi o'zgargan.Unga bor gapni aytdim. U meni uyga opketishga tushdi. Men ko'nmadim. Ukam tashqari chiqib ketib, bir paytda yeguliklarni ko'tarib kirib keldi. Biroz vaqt o'tib, uyga oq xalatini kiygan do'xtir ham bosh suqdi.

Do'xtir meni obdan tekshirdi. So'ng, keksalizingizga qaramay, bitishi yaxshi, dedi. Faqatgina qimirlamay yoting, tuzalib ketasiz. Toychoqday chopib yurishingiz yaqin qopdi. Undan keyin tomga qarab sakramang, deya tayinladi.

Kechga tomon choyxonadigilardan yana to'rttasi keldi. Ularga yana o'sha do'kondor boshchi edi. Ukam bilan tanishdilar. Gurung boshlandi. Qozon osilib, o'rtaga dasturxon yozildi. Qozon osildi. Oraga aroq tushdi. Menga ham uzatishdi. Biroq, rad etib, aroqni ichmadim. Ular ham meni qistab o'tirishmadi. Suhbat qiziy boshladni. Ora-sira mening dardimga ham sherik bo'lib, hali

ko'rмагандек bo'lib ketasiz, deb qo'yishadi.

Tun kirib, vaqt allamahal bo'lganida ulardan biri cho'ntagidan kartani chiqarib o'rtaqa tashladi. Avvaliga bir qo'l ikki qo'l shunchaki o'ynashdi. Keyin o'rtaqa pul tikildi. Menga tagpuli berib turishga bir ovozdan kelishib olishdi. Ukam ham ularga qiziqib, usta qimorbozlardek, kartalarni chapdastlik bilan olib, qo'lida ushlab turardi. Ularning hammasi burgutdek bir-biriga sinchkovlik bilan qarab turishardi. Kimning qo'lida nima borligini bilgisi kelardi. Biroq, birortasi ham sir boy bermasdi. Do'kondor davradagilarni yuta boshladi.

Tongotarga yaqin o'yg'onsam, davra hali ham qimor o'ynar edi. Endi pul tugab, o'rtaqa narsalar o'rtaqa qo'yila boshlagandi. Kim soatinib, biri pichog'ini va yana boshqasi telpagini qo'yayotgandi. Ularni olamni unutib, butun vujudi bilan qimorga berilib ketgandi. Hammasi yutuqqa umidvor. Biroq do'kondor hammasini shir yalong'och qilgunicha yutib bo'lgandi. Tong oqargan mahali u davradagilarga qarab, "buguncha o'yin tugadi, endi ishga boramiz. Kechga agar Omon aka rozi bo'lsalar shu yerga kelib, yana davom ettiramiz. Buning uchun bir ziyofat mendan," dedi.

Barchasi jimgina quloq solib o'tirardi. Birov oraga gap qo'shmadni. Hammasi karaxt edi. Men ularni o'tirishga unnadim. Ukam joyidan irg'ib turib, choy damladi. Mehmonlar dasturxonadan biroz totingandek bo'lilar-da, yuzlariga fotiha tortib yana o'rnilaridan turib ketishdi.

Men ikki oy to'shakda yotdim. Ukam jonomga aro kirdi. Bu vaqt orasida xotinimu bola-chaqalarim ham sayohatdan kelishdi. Ishonasizmi, xonamga bosh suqib, ahvoling qalay, deyishga tili bormadi. Umr poyoniga yetay deb turgan paytda ilojsiz qolish, qo'lingdan hech narsa kelmay, birovg'a mut'e bo'lib yashashning azobini mendan so'rasha, hammasini bir boshdan aytib beradigan darajaga yetdim. Ular menga endi mutloqo qaramay qo'ygandi. Go'yoki, men ular uchun yo'q odamdek edim. Hattoki, o'z pushtikamarimdan bo'lgan bolalarim ham holing ne, deb so'ramasa dunyoning tugab bitgani shu ekan, deyishim kamlik qilarkan. Biroq, aybni ulardan izlashdan oldin, o'zimga ham razm solaman. O'zim ham so'fi emasligimni, aybim borligini beixtiyor tan olaman. Biroq, qilgan gunohlarimni kechirsa ham bo'lardi-ku! deb o'ylab qolaman.

Ammo o'zingni o'zing kechirganing bilan boshqalar seni kechirmasa, dardingin yana kimlarga aytasan. Aslida, seni dardingning kimga keragi bor.

Men yarimjon bo'lib qoldim. Baribir ham uydan tashqariga chiqolmasdim. Holim yo'q edi. Choyxonadagilar mendan xabar olib turishadi. Goh-gohida ukam kelib, xoli-jonimga qo'yimay uyga opteman deydi. Men bormayman, deb xarxasha qilaman. Shukrki, qolgan jonom omonot ekan, deya o'zimni avaylayman.

Bir kuni Salim do'kondor qo'ni-qo'nji to'lib keldi. Yonida sheriklari bor. Mendan xabar olgani kelishgan ekan. Ko'rib, gapning rosti xursand bo'ldim. Yuragim to'liqdi. Masalliqlarni sheriklari qozonga bosishdi. Do'kondor suhbati soz odam ekan, ko'rgan bilganlardan gapirib, davrani kuldirib, og'ziga qaratib o'tirardi. Ovqat tayyor bo'lgach, dasturxonga suzildi. Yigitlar ham atrofdan kelishdi. Yana aroq suzila boshladi. Menga ham tutishdi. Bir qultum ichaman, deb bir ikki qadahni bo'shatdim.

Ancha vaqtgacha gurunglashib o'tirdik. Keyin odatdagidek, qimor boshlandi. Har doimgidek, menga tagpuli berishadi. Jimgina ularni kuzatib turaman. Nima bo'ldi-yu, o'zim ham qimorga berilib, shynay boshladim. Boshida bir ikki qo'l yutdim. Keyin esa omadim keta boshladi. O'yindan bemavrid chiqib bo'lmasdi. Buniyam chidaganga chiqargan. O'yinda oxirigacha qoldim.

Anchagina narsa yutqazdim. Bu safar Jabborga omad kelgandi. Buni uning yurish-turishi tugul gapu so'zlaridan ham bilib olsa bo'lardi. Do'kondor esa ko'pni ko'rgan odam emasmi, jimgina kuzatib turardi. Tong otar otmas ular uyiga tarqab ketishdi. Bu safar men ularni uydan turib kuzatdim. O'zlar ham tiashqariga chiqishimni istashmadni. O'rniimga yotdimu tong qotib uxladi.

Birov meni turgandek bo'ladi. G'ira shira uyqu aralash burilib qarayman, tepamda xotinim bilan qizim turardi. Xotinimning qo'lida o'qlov bor edi. Endi bilsam, u meni o'qlovi bilan turgan ekan.

-Sheriklaringiz qani?-deya so'roqlaydi u.

-Ketishgan, -deyman.

-Ularni hoziroq chaqiring, -deydi qat'iy.

-NimagaB ? TinchlikmiB ? Ularda nima gapingiz bor edi? deyman.

-Masala jiddiy. Kelinning sepiga atab olingen tillolar yo'q. Onam bergen tillo baldoq ham qo'qolgan! deydi xotin.

-Qaerda turgan edi o'zi o'sha matohlar. Sheriklarimning bunga nima aloqasi bor?deya ajablanaman.

-Matoh, demang! Mehnatingiz singmaganda-a, qimorga boy bergansiz, - deya xotinim uyni boshiga ko'tarib uvvos soladi. -Tezroq chaqiring, bo'lmasa, milisaga beraman, keyin kech bo'ladi. Undan ko'ra jimgina, yaxshilikcha joyiga qo'ysin. Bo'lmasa, tug'ilganiga pushaymon bo'ladi.

Shu zahoti chayon chaqqandek o'rnimdan yarimjon bo'lishimga qaramasdan irg'ib turib ketaman. Boshim qotgan. Va ustiga nima qilishimni ham bilmasdim. Xonaning o'rtaida so'rrayib qotib qoldim. Karaxt bo'lib qolgan edim. Atrofimda xotinim gapirib turardi. Quloqlarim uni eshitmasdi. Bir amallab, yuz-ko'llarimni yuvib kelib, joyimga o'tirdim. U haliyam shashtidan tushmagan. O'g'ini topish payiga tushgan. Meni qistaydi. Holi-jonimga qo'ymadni.

Oxiri, Salim do'kondorga voqeani aytib, ularni chaqirdim. Hammasi zudlik bilan yetib kelishdi. Orada tushuniksiz vaziyat.

Xotinim beliga qo'lini tirab, qo'lidiagi o'qlovini o'ynatganicha, dag'dag'a qiladi:

-Topasizlar, bo'lmasa, milisa iti bilan keladi-da, masalaga oydinlik kiritadi. Shunda uyalib qolmanglar. O'zingizcha kasal odamga qaragan kishi bo'lib, uyni tunab ketish yaxshi emas.

-Kennoyi, kechirasiz, arslon bilan kelsa ham mayli, burgut kelib ko'zimizni o'yib olsin. Biz hamma ishni qilarmiz. Lekin o'g'rilik qilmaganimiz. Negaki, bu yerdan tuz totdik. Namakning qadri bor. Bizni yegan nonimiz ko'r qiladi, agarda shu ishni qilgan bo'lsak, - deydi Salim do'kondor.

Boshqalar jim turadi. Ularning nomidan Salim do'kondor so'zlardi. Biroq uning o'zini ham so'zini ham pisand qilmagan xotinim:

-O'g'ri hech qachon mana shuni men qilganman, demaydi. Kechgacha muhlat, qanday olgan bo'lsanglar, yana shunday joyiga keltirib qo'yinglar. Bo'lmasa, boshqa chorasini ko'raman, - deydi-yu, ularga javob berishga oshiqadi.

-Kechirasiz, qancha kutsangiz ham biz yo'qolgan narsangizni joyiga keltirib qo'yaolmaymiz. Mahalla-kuydan so'rang, bizni kimligimizni. Azbaroyi eringizga rahmimiz kelgandan bu yerga kelib ketib yurdik. Bunday bo'larini bilsak, oyog'imizni umuman bosmasdik. Tavba, bunaqasini ko'rмагандим, - deydi do'kondor salmoq bilan.

So'ng ular menga qarashdi. Boshim bo'ynimga osilib qolganini ko'rib, ular ham avj qildi:

-Eringiz yosh boladek uyda yotadi-yu siz esa sayru sayohatda yurasiz. Qaysi ayol bu ishni qiladi, - deya avj qila boshlagan Salim do'kondorning gapini bo'lib:

-Bu boshqa masala,- deydi xotinim.

-Tilloning yo'qolgani ham boshqa masala, buning bizga aloqasi yo'q, - deydi Jabbor.

Muzokora yakunlanmasdan, sheriklarim uydan jahl bilan chiqib ketadi. Keyin xotinim chor atrofga jar solib, tomoshani boshlaydi. Hovlini mirshab bosdi. Ular o'zлari bilan kuchugini olib kelmagan edi. Negaki, iskovuch it olmoqchi bo'lganlar islar allaqchon ketib bo'lgandi.

Ular avvaliga bo'lgan voqeani xotinimdan eshitishdi. Orada menga ham qarab qo'yishadi. Uyatdan tirishib o'ddim. Keyin menga yuzlanib, so'roq qila boshladi:

-Voqea qanday bo'ldi. Taxminan soat nechilarda o'yin tugadi. Kimlar bor edi?

Men bilganlarim va ko'rganlarimni bir boshdan aytib beraman. Ular eshitganlarining hammasini qog'ozga tushirishardi. Shunda ulardan biri, aftidan rahbari bo'lsa, kerak, guvohlarni surishtiradi. Guvohlar, yo'q, deydi xotinim. Unday bo'lsa, otaxonning sheriklarini chaqirish kerak. Qaroqchi chollar, - deb qo'yadi.

-Ana o'zлari chaqirsinlar, hech narsani bilmagandek o'tiribdi-yu, - deydi xotinim ham kesatib.

-Amaki, sheriklarigizni bu yerga chaqiring! amr qiladi mirshab.

-Ular hozir ketishdi. Yangangiz muhlat bergen, tilloni joyiga keltirish uchun. Shunga hoziroq ketuvdi, - deyman pinagimni buzman.

-Hazilning o'rni emas, amaki, tezroq chaqiring, voqea joyida hammasini hal qilganimiz yaxshiroq, - deydi yana bira muomila bilan.

-Odamni uyaltirdi, bu xotin. Ularni endi nima deb chaqiraman. Qaytib kelishi gumon ularning, - deyman.

-Unday bo'lsa, gumoningiz kimdan? deya birdaniga so'roqlaydi boshqasi.

-Xudo biladi, kim olgan u tilloni? deyman. Gumon iyomdonan ayiradi.

-Unday bo'lsa, bir boshidan surishtiramiz, - deya rahbari jahd bilan kursiga cho'kadi. - Axmedov gumonlanuvchilarni voqega joiyga chaqir, kelmasa, uyidan sudrab opkel, tushungdingmi?!

-Bo'pti, bajaramiz! dedi-yu mirshab mulozim ishga tushdi. Salim do'kondorga qo'ngiroq qildi.

Do'kondor bechora nomusdan ikki bukilib, uyg'a sheriklarini ergashtirganicha kirib keldi. Men uning yuziga qaray olmadim. Ular nafratini yashirib utirmasdi. Bu esa yuz-ko'zlaridan shundoqqina bilinib turardi.

-Bu yerda sodir etilgan o'g'rilikdan xabardorsizlar, gumonlanuvchilar, aytin-chi, tillo buyumlarni kim olgan? Yana shuni ham qo'shib qo'yishim kerakki, yolg'on guvohlik berish va tergovni chalg'itishga urinish qo'shimcha moda bilan jazonining og'irlashuviga olib keladi. Biroq, masalaning yana bir tomoni xam borki, chin dildan, pushaymon bo'lib, ichimlik yoki chekuv ta'siri olib qaytarib berishning chorasini topolmayotgan bo'lsangiz, darrov shu ishni amalga oshiring. Bu esa jazoni yengillashtiradi. Hattoki, uni jazodan ozod etishimiz ham mumkin. Kennoymning tavsiyasiga binoan, shu vaqtgacha o'ylab ham ko'rgan bo'lsangiz kerak, - deydi mirshablarning rahbari xona buylab qadam tashlab ularga nutq irod etarkan.

-O'rtoq, boshliq, hamma gapingiz to'g'ri, qarshiligidiz yo'q. Mana shu yerda o'tirganlar bu uyda faqatgina mehmon bo'lganmiz. Omon akaning holidan xabar olish uchun kelganmiz. Bundan tashqari, birortamiz ilgari sudlanmaganmiz. Boz ustiga otabobolarimizdan birortasi o'g'ri o'tmagan. Hozir bu gapni birov eshitsa, ko'cha-kuyda yurgiligidiz qolmaydi, - dedi Salim do'kondor.

-Qo'ying, bu gaplarni, hozir hammangiz chaqirsa tergovga yetib kelaman, tashqariga chiqib ketmayman, deya tilxat yozib berasizlar, - deya amr qildi mirshab.

-Bo'pti, Omon aka, aslida nima yo'qolgan, bahosi qancha? so'raydi Salim do'kondor betoqat bo'lib.

-Ana, bular endi o'ziga kelyapti, - gapga qo'shildi Farida.

-Boshlanishi shunday bo'ladi, - deya mirshab tirjayadi.

-Akangiz uning bahosini bilmaydi. Ikkita zirak va ikkita uzuk yana bir tillo baldoq bor edi. Narxi taxminan uch ming bo'lmasayam, ikki yoki ikki yarim ming dollar turardi, - deya xotin erining o'rnidan so'z boshlaydi.

-Mayli, gap-so'z ko'paymasin, bugun bo'lmasa ertaga albatta, kechiktirmsandan pulni yetkizamiz. Tilxatni qo'yib turinglar, hammasini aytganlaridek qilamiz, - dedi Salim do'kondor.

Farida bilan mirshablar goh menga, goh gumondorlarga qarab qo'yishadi. Aftidan, ish bunchalik tez hal bo'ladi, deya o'ylashmagan chog'i. Keyin menga yuzlanishib:

-Domla, tillolarni kim olganligi ma'lum, endi siz ko'p hijolat bo'l mang. Halol pulga kelgan mol yana qaytib egasini topadigan bo'ldi, - deydi jo'rovozda.

Men indamay turaman. Hamma tarqaldi. Xonada yana yolg'iz o'zim qoldim. Kech bo'ldi. Ovqat keltirishdi. Ishtaham yo'q edi. Yemadim. Yotdim. Yana o'nga toldim. Odamizotning ishlariga lol qoldim. O'g'ri kim, to'g'ri kim bilmay qoldim. O'yimning oxiriga yetolmay ovora buldim.

Sim karovatda uyoqdan buyoqqa ag'darilib yotaman. Uning g'ijirlashi yoqmaydi, jonom og'riydi. Asablarim qaqlashagan. Shu yotganimcha qachon uxlaganimni bilmayman. Bir mahal deraza taqillaydi. Shoshib tashqariga chiqdim. Qarasam, ukam turibdi. Ichkariga boshladim. Hol-ahvol so'rashdik. Undan nega bemahalda yurgani-yu bu yerga kelishining sababini so'rayman. Uning ham javobi tayyor ekan. Birdaniga aytdi qo'ydi;

-Aka, yetar endi. Qo'ying bu yerlarni. Ketdik. Bolalarim katta bo'ldi. Uy ko'p. Bir uyni beraman, bolalarimdan biri sizga qarab yuradi. Katta shaharda bir o'zingiz ovora bulib yurmang. Men sizga ukaman, xato kimdan o'tmaydi, deysiz. To'r oyoqda turib ot ham qoqiladi. Peshanangizda shu narsalar bor ekan, mana ko'r dingiz. Bu yog'iga xudo sharmanda qilmasin. Ota-onangiz yashagan elda tuyu tomoshalarga qatnashib, elning oldi odamlari orasida yurasiz. Siz bu yerga sig'maysiz. Rostini aytadigan bo'lsam, sig'dirishmaydi. Begonaligiga boradi. Bilaman, u yer tugul olamga ham sig'may ketyapsiz. Lekin o'lchamini oldim, aka ketmasangiz bo'lmaydi. Hammasi o'ylab ko'rib keyin keldim. Qani, narsalarni yig'ishtiraylik. Vaqt borida yo'lga tushamiz.

-Yo'q, uka, biroz shoshma. Hali bir-ikkita qiladigan ishlar bor, - deyman.

-Ey, - deya beparvo qo'l siltaydi u. Qari odamda yana qanday ish bo'lishi mumkin. Yoki meros masalasidami Yoki yana boshqa bolalarigizni ko'rib xayrashishni istayapsizmi? Aka, bo'ldi orqaga qaramang.

Ukamning shashti juda baland edi. Sharti esa og'ir edi. U o'zi qilayotgan ishga astoydil berilgan bo'lib, buyumlarimni jamodonga solardi. U yelday kelib, qushday olib ketmoqchi bo'lardi. Biroq men unga sodir bo'lgan voqeani bir boshidan oqizmay-tomizmay aytib berdim. Ukam ko'zlarini kata-katta ochdi. Unga monand og'zi xam ochilib angrayganicha so'zlarimga qulq solardi. Suhbat so'ngida boshini changallaganicha kursiga o'tirib oldi. Ancha vaqt jim o'tirdi. Men ham bu paytda so'zimni tugatgan edim.

-Aka, qo'ying, u odamlar pulni keltirib tashlaydi-yu sizning nomusingiz toptaldi. Siz beburd bo'lasiz. Ular keyin sizni odam o'rniда ko'rmaydi. Obro'yingiz to'kilgan bir paytda yana bu ishlarni qilsak, ota-bobolarimning ruhi chirqiraydi. Hammasini men bo'ynimga

olaman. Yangamga shu kerak. Kuch-ko'ronni ko'tarib siz uyg'a, men esa turmaga ketaman. O'lmasam, yana qaytib boraman. Bu isnodga chidab bo'lmaydi. Orqamizdan hech kim yomon gapira olmasin, aka, - deydi ukam qat'iy.

Bu orada tong otadi. Aka - uka choy ichib turgan chog'imiz, Jabbor eshik taqillatib, ichkariga kirib keladi. Gap so'z aytmasdan qo'lidagi tugunchani dasturxon ustiga tashlaydi.

-Domla, Salim akam berib yubordilar. Tillolarning puli. Yetmasa, aytasiz, yana qo'shamiz, deydi-yu ketishga chog'lanadi. Ukam uni ketishga qo'ymaydi.

-O'tiring, Jabborjon, kayfiyatning tushkun. Pulni siz to'lamaysiz, mana men to'layman. Mehmon odamni urintirish yaxshimas. Kerak edi, harajat tortib qoluvdim. Garov berib pul oluvdim. Vaqtida keltirib joyiga qo'yish esimdan chiqibdi. Begona emas, akamniki-ku, deya haddim sig'ib oluvdim. Yangam bu yoqda to'polon ko'taribdi. Orada biroz tushunmovchilik bo'libdi. To'g'ri tushunasiz, deb o'layman, uka. Bir qoshiq qonimni mana hozir akamdan so'rabb o'tiribman. Hozir yangamga ham bor gapni yotig'i bilan tushuntiraman, - deydi ukam.

Shu payt xonamga xotinin ham kirib keladi. Biroz o'tib, uning ortidan mirshablar ham yotgan joyimga bostirib kelishdi. Jabbor endi gap boshamoqchi bo'lib turgan joyida, ukam ildamlik bilan so'zga tushadi;

-Marhamat, kelinglar, dasturxonga qaranglar. Yanga uzr, garovga tillolarni qo'yib picha pul oluvdim. Vaqtida opkela olmadim. Qarzim ko'payib ketdi. Xavotirga tushmang, hammasini qaytaraman. Faqatgina uyga borib kelishim kerak. Uzr, men gumroh shuncha odamni ovorai sarson qildim.

-Ana o'g'ri o'z oyog'i bilan kelibdi. Sizlarga ham oson bo'ldi, - deb xotinin mirshablarga yuzlandi.

Ular xam vaqtini boy bermasdan, ukamni kishanband qilishib, mahkamaga olib ketishdi. Jabbor ikkimiz uuda bir-birimizga ne qilarimizni bilmay qarab o'tirgan chog'imiz Salim do'kondor kirib keldi. Men ulardan uzr astoydil so'radim.

-Domla, tillo ukangiz olmagan. O'g'ri bita guman mingta. Ko'ngil sezadi, bola bechoraga jabr qilibmiz, Jabbor? deydi Salim do'kondor.

-Mayli, taqdirda shuyam bor ekan,- deyman.

-Domla imoratni qurayotgan paytida poydevorini mustahkam bo'lishiga e'tibor qaratishgan. Biz buni unutib qo'yiganmiz. Lekin har kim o'lsa, go'ri boshqa. Birovning gunohini bo'yninga olmay. Ugaga katta jabr qildik. Jabbor, mahkamasiga bor, pulni ber, aybimizni tan oldik, degin. Mehmonga kelgan bolani qamatib yuborsak, keyin eshitgan quloq nima deydi. Sharmanda bo'lishdan ko'ra, yurmagan yaxshi, - deydi do'kondor.

Shu maxal, darvoza qattiq taqillab qoldi. Mehmonganlarni qo'yib, o'zim eshikka otildim. Chiqsam, darvozamiz yonida tez yordam mashinasi turibdi. Yonida tanish chehrali kishi oq xalatda menga quchoq ochdi.

-Omon aka, bormisiz? deydi.

Uning quchog'idan chiqar ekanman, "raxmat, uka, qarilik gashtini suryapman. Mana uydaman. Shogirdlar yo'qlab turadi," deyman.

-Ustoz uzr. O'g'lingiz - Mo'min Rajabovni bizning shifoxonaga opkeluvdi. Sal-pal mazasi qochgan ekan. Biroz davoladik.

Hurmatingiz bor, atay keldim, oldingizga. Xosroq gap ham bor ediki, shuniyam aytmasam bo'lmaydi. "Bola bezorilarga qo'shilsa mayliydi-ku-ya, lekin anavi o'tlardan ham tatib ko'radigan bo'lgan ekan. Shifoxonamizga og'ir ahvolda keltirishgan edi, bir amallab tuzatdik. Surishtirib bilsak, bola sizdek aziz ustozdek farzandi ekan. Birovga aytmadik. Anonim deydi-ku! Anna shu tarzda, sir tutib davoladik. Keyin domlajon, mana bu narsani ham opqo'ying. Yigitning kissasidan chiqibdi. Hamshiralalar menga keltirib berishdi. Harna, omonat, "B deya qo'limga bir tugunchani tutqazdi.

-Nima bu o'zi? deyman shoshib.

-Domla, bu tilla ziragu uzuk yonida baldoq ham bor. Bola o'tga ishlataman deb, uydan beso'roq olib chiqqan bo'lsa kerak.

Bularning hammasida shu odat bor. Xumor tutgan paytida ko'ziga hech narsa ko'rinnmaydi. Bolani endi ko'zdan qochirmang. Doim nazorat qilib turing, - deya uqtirardi do'xtir.

-Rahmat, uka, dunyo turguncha turing! deyman o'pkam to'lib.

Shu gapni unga aytamanu yerga o'tirib qopman. Do'xtir bechora meni ham, bolamni ham uyga kiritadi. Bir mahal o'zimga kelsam, boshimda ukam va do'kondor boshchiligidagi choyxonachi ulfatlarim turardi.

Ukam hafta o'n kun uyimda yurdi. Opketaman, deydi. Men esa tixirlik qilib unamayman. Oxiri u uyiga ketdi.

Har tomonlarni o'ylab, men xam uning ortidan manzilimga boryapman, uka, deya menga yuzlandi hamrohim.

* * *

Yo'ldoshim menga qarab turadi-yu yana ko'zlarini olislarga tikadi. Bu bolaga ayni gaplarni nima uchun aytdim, o'zi, deb o'ylasa kerak, deyman. Uka, kechirasiz, anavi odamlar turgan joyga bir saklang. Ul-bul xarid qilay. Uyga quruq qo'll bilan kirish o'ng'aysiz, deydi. Mashinani sekinlatib, yo'l chetida to'xtayman. Sherigim shoshib tushib ketadi.

Uni kutib tura, mashinaning yukxonasidan boshpurtimni qidiraman. Narsalarni titkilar ekanman, raxbarimiz Xayriddin Nosir bergen konvertni beixtiyor yirtilganiga ko'zim tushadi. Nima sababdan yirtildi ekan, deya qo'limga oldim. Ochib o'qigim keldi. Biroq, birovning nomasini o'qish, odobdan emasligi esimga tushadi-yu yana shashtimdan qaytarman. Shayton vasvasa qiladi-da boz o'qigim keladi, u yerdagi sirlardan voqif bo'lqim, rahbarimizning kechinmalarini bilgim keladi. Biroq omonotni egasiga yetkazishim kerakligini o'layman. O'zimni o'zim bu ishdan qaytaraman.

Ne qilayki, nomani o'qigim kelardi. Konvert yirtilgan edi. Oysuluv muallima bu xatni qo'liga oqimaydi-yu, bir joyga yashiradi. Keyin o'zi yolg'iz qolganida ochib ko'radi. Ichida qayd etilgan dil izhorlaridan ko'ngli yayraydi. Bir necha kun mana shunday kayfiyatda yuradi. Keyin sirdan biror kim xabardor bo'lmadimikan, deb xayol suradi. Xatning yirtilgani ana shu paytda yodiga tushadi. Va tayinki, bu paytda, muallima meni nomani ochib o'qigan, deydi.

Xatni yirtilgan konvertga qayta joylayman-da, yana yukxonaga tashlayman.

Bu bilan men xayolimdan kechayotgan ishtiyoqni ham tashlagan bo'ldim. Shu paytda sherigim halloslaganicha mashina tomon kelardi. Uning qo'ni-qo'jni to'la edi. Unga yollashgan kishi bo'lib, eshikni ochdim. Narsalarni ortga tashladik. U o'tirgach, mashinani o't oldirib, yo'limizda davom etdik. Safarimizning bu yog'i oz qolgan edi.

Men yo'lakay ziyoratgoxga kirmoqchi edim. Sherigimga ayni istiholamni aytasam, unga xam bu taklif ma'qul tushdi.

Boshida aytganimdek, bu ziyoratgoh qishlog'imning yonida edi. Ikkimiz yo'lida borarkanmiz, jimgina ketardik. Men yo'ldoshim - Omon akaning boshidan kechirganlari o'zimcha mushohoda qilardim.

Manzilga yetib keldik. Ulovdan tushamiz. Kech kuzakning shamoli esardi. Atrof tiramohning ko'kiga belangan. Qabriston ichi

This is not registered version of TotalDocConverter.
so'lin. Do'maygan qolalari ham to'k maystalar qoplagan. Jimjitlik. Shamol esardi. Hali hamon yomg'ir ham yog'ish ehtimoli bor. Dimoqqa namiqqan xashaklarning hidi uradi. O'zim yurgan so'qmoqlar, ko'chalaru yo'llarga intiq bo'lib qarayman. Tanish odamlarni uchratgim keladi. Yosh boladek sakrab-sakrab o'ynagim keladi.

Va olisdan ota-onamning qabriga qarab qo'yaman. U yerda yana boshqa jigarlarimning hoki ham bor edi. Ularni birma bir ko'z oldimdan o'tkaza boshlayman. Xayolim olis zamonlarga ketadi

Hamrohim bilan sekinasta maqbara tomon yura boshlaymiz. Atrofdagilar bizning yurish-turishimizdan mehmon ekanligimizni bilib, sekkingina yo'l berishadi. Salomlashib, ziyyorat joyiga boramiz. Men sheringimni o'zimdan oldin ichkariga boshlayman. U kiradi, ortidan men ham. Duo qilib, yuzimga fotiha tortdim. So'ng o'rnimdan sekkingina jildim-da, ortga qaytdim. Tashqariga chiqdimu chekkaroqda sheringimni kutib o'tirardim. Atrofimga meni tanigan yurtdoshlarim kelib, so'rashdi. Men xam ularning kayfiyatiga mos so'zlarni topib, gurunglashib o'tirdik.

Qarasam, rahbarimiz Xayriddin Nosir ham olomon orasida ko'ringandek bo'ldi. Balki, birovga o'xshatayotgandirman, deya qayta tikilaman. Xuddi o'zi, adashmapman Xayriddin Nosir edi u. Yelkasiga birdaniga bosh qo'ndirilgandek, bo'yni bilinmasdi. Katta kallasini silkiganicha kim bilandir gaplashib turibdi. Yonida yana bir qancha odamlar unga muntazir. O'zimni sekkingina panaga olmoqchi bo'laman. Ammo qiziqsinib va boz ustiga kalovlanganimcha atrofimdagilardan so'rayman, "anovi odam Xayriddin akami?" Ular ham o'giriganicha, " ha, Xayriddin, Uzoqbuloqdagi Nosir buvaning o'g'li," deyishadi. Endi rostdan ham o'zimni chetga olishim kerak, deb hozirlik ko'rib turgan joyimda, qanday paydo bo'ldi, bilmadim, rahbarimiz Xayriddin Nosir sekkingina bilagimdan tutib turardi. Shoshib salom berdim. Alik oldi. Va bilagimdan tutganicha ohista chetga tortdi. "Sizning oyog'ingiz yetgan joylarga bizlar xam boraylik, dedik uka, bahonada ziyyoratga ham kirdik. Sheringiz qani? Po'lat, xat qaerda? Hali bermagan chiqarsiz? Uni o'zimga qaytarib berasiz. O'ylab ko'rdim, nevarali odamga uyat bo'larkan! Buning ustiga eski yaralarni tirnagan bilan, o'zimizga ziyon qilarkanmiz! Birov eshitmasin, bilmasin ham uka. Xatni bering va buning ustiga ustak birovga aytmaslik bo'yicha va'dangizni ham bering, men tinch yuray, sharmanda bo'lmayin."

Va'da berdim. Xat mashinaning yukxonasida, bu yerdan chiqsak beraman, dedim. Ikkimiz birgalashib, sheringimni kuta boshladik. Betoqat bo'lardim. Olamjahon vaqtдан keyin sheringim, bo'g'riqqinicha maqbara ichidan chiqib keldi. U kela turib, uzr so'rар, so'ramas, "ey, uka, Xayriddinjon bormisiz, qaerlarda yuribsiz? Sizni ko'rар kun xam bor ekan-ku!" deya rahbarimizning quchog'iga otildi. Rahbar ham yo'qotgan odami topgan kishidek achomlashdi. Men ularga hayron bo'lib qarab turadim. Ular bir zamonlar ijarada birga turishgan ekan

Mashinaga o'tirarkanmiz, rahbarimiz mendan konvertga solingen xatni oldi-da, pastlikka tushib, uni soyga oqizdi. "Endi Po'latjon, ishlar bitdi. Omon akani olib, biznikiga o'ting, uyda o'tirib, suhbatni davom ettiramiz," dedi.

Biz oldinma keyin yo'lда ketar edik